

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

5A 120102-LINGVISTIKA (O'ZBEK TILI)

YO'NALISHI

2-kurs magistranti

Mirdedayeva(Yuldasheva)

Mashhuraning

magistr darajasini olish uchun

O'ZBEK SO'ZLASHUV NUTQINING

SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

f.f.d. H. Usmonova

Namangan - 2018

Mundarija:

Kirish.....	3
1–bob. Til va nutqqa antropotsentrik yondashish tamoyillari.....	7
1.1. Antropotsentrik tilshunoslik va uning yo'nalishlari.....	7
1.2. Sotsiolingvistika va pragmatik lingvistikaning o'zaro munosabati.....	17
Bob bo'yicha xulosa.....	25
2–bob. O'zbek so'zlashuv nutqining sotsiopragmatik xususiyatlari.....	26
2.1. Nutqning ijtimoiy xoslanishi	26
2.2. So'zlashuvda nutqiy etiketning ifodalanishi	37
2.3. So'zlashuv nutqida pragmatik ma'noning ifodalanishi	44
2.4. So'zlashuv nutqi frazeologizmlarining sotsiopragmatik xususiyatlari.....	53
Bob bo'yicha xulosa.....	62
3–bob. O'zbek so'zlashuv nutqida noverbal vositalarning qo'llanishi.....	63
3.1. So'zlashuv nutqida ekstralingvistik faktorlar.....	63
3.2. Noverbal vositalarning gender xususiyatlari.....	70
Bob bo'yicha xulosa.....	76
Umumiy xulosalar.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	79

KIRISH

Mavzuning dolzabligi. Bugungi kunda jamiyatimizda barcha soha va tarmoqlarda tub o'zgarishlar, islohotlar kuzatilmoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalarga, ilm-fan tarmoqlariga zamonaviy yondashuv, ayniqsa, fan-texnika sohasiga ham innovatsion yondashuv masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon barcha fanlar qatori tilshunoslik oldiga ham jahon tilshunosligi bilan qadam-baqadam rivojlanish, innovatsion g'oyalar va loyihalar bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish vazifasini qo'ymoqda. Aynan shundan kelib chiqqan holda tilshunosligimizda ham yangi yo'nalishlar jadallik bilan taraqqiy etmoqda. Jumladan, lisoniy shaxs muammosi markaziy o'rinda turadigan antroposentrik tilshunoslikning lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvopersonologiya, pragmalolingvistika, sotsiololingvistika kabi tarmoqlariga oid tadqiqotlar tilshunosligimizda dolzarflik kasb etmoqda.

Ma'lumki, insonning so'zi uning mafkurasini belgilaydi. Inson o'z nutqi orqali obyektiv olamga bo'lgan munosabatini ifoda etadi, shu bilan birga, milliy o'zligini ham namoyish etadi, dunyoqarashi, ongi, shuuri, hissiyoti, idroki, bilimi, hayotiy tajribasi, imon-e'tiqodi, umuman, inson ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'luvchi siyosiy-mafkuraviy, falsafiy, axloqiy, diniy va estetik qarashlari uning nutqida mujassam bo'ladi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida hamisha jamiyat a'zolari bilan muomada–munosabatda bo'ladi, jamiyat bilan uyg'un hayot kechiradi. Uning butun faoliyatini o'zida to'la aks ettiradigan hodisa esa jonli so'zlashuv nutqi sanaladi. So'zlashuv nutqi serqirra lingvistik hodisa sifatida lingvokulturologik, psixolingvistik, pragmalolingvistik, etnolingvistik, sotsiololingvistik xususiyatlarni o'zida mujassamlaydi. Bu nutq yozma nutqqa qaraganda ta'sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so'z qo'llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Unda so'zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi. So'zlovchi o'z nutqiga hissiyotini ham qo'shib gapiradi, bunda turli imo-ishora, qo'l harakatlaridan foydalanadi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo'lgan so'z va iboralarning o'rnini

to'ldiradi va bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. So'zlashuv nutqida to'liqsiz gaplar ishlatiladi, chunki tushirilgan qism boshqa bir replikada yoki boshqa bir nutq vaziyatida ifodalanishi mumkin. Shuningdek, bu nutq ishtirokchilarining umumiy bilish fondiga oid bo'ladi.

So'zlashuv nutqi – o'ziga xos mustaqil, alohidalashgan nutqiy sistema¹ bo'lib, so'zlashuv nutqi uchun so'zlarning dialogik shaklda bo'lishi, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan har xil takrorlar, intonatsion vositalar (gumon, ishonch, piching, qat'iylik, hazil) ning ko'proq bo'lishi, so'zlashuv uslubi uchun xos bo'lgan emotsional-ekspressivlikning mavjudligi, so'zlashuv uslubiga xos situatsiya (vaziyatlik), yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko'proq bo'lishi, haqorat, erkalov, kichrayturuv, oddiy muomalaga oid so'zlarning ko'proq bo'lishidir². So'zlashuv nutqiga xoslangan vaziyatboplik, erkinlik, norasmiylik, hozirjavoblilik, etikaviy, estetik vositalarini ta'minlovchi intonatsiya, pauza, mimika, imo-ishora kabi holatlar, ko'chma ma'no nozikliklari, frazeologik iboralarning ko'pligi, nutq jarayonida qisqa (chala) uslubga xos sifiqliklarni ta'minlovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hodisalar tilshunosligimizda bir qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Bugungi kunda lisoniy shaxs muammosi dolzarb masala bo'lib turgan vaziyatda so'zlashuv nutqida nutqiy vaziyat, muloqot xulqining bu nutqda ifodalanishi, ma'no nozikliklari, so'zlovchi va tinglovchi munosabati, nutqda baho munosabatinig aks etishi hamda tinglovchiga ta'siri, nutqiy muloqot bosqichlari masalalari ham keng qamrovda o'rganilishi kerak bo'lgan dolzarb masalalardandir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida keyingi yillarda lisoniy hodisalar mohiyatini ochishda antroposentrik paradigmaning yetakchilik qila boshlaganligi, inson omiliga alohida e'tibor qaratilayotganligi seziladi. Bunda Avganova M.A., Aznaurova E.S., Alefirenko N.F., Apresyan Yu.D., Arutyunova N. D., Baranov, A.N., Baxtin M.M., Vorkachev S.G., Demyankov V.Z., Doroshenko A.V., Zolotova G.A., Markelova T.V. kabi tilshunoslar qatori

¹ Ўринбоев Б. "Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари" Тошкент. 1973, 4-5-бетлар.

² Турсунпўлатов М. "Лексика узбекской разговорной речи" Тошкент. "Фан". 1968, 84-бет

Abduazizov A.A., Nurmonov A., Mahmudova N., Safarov Sh., Yo‘ldoshev B., Hakimov M., Boymirzayeva S., Xudoyberganova D., G‘oyibov S., Yoqubov J.A. kabi o‘zbek olimlarining ham xizmatlari katta bo‘ldi.³ Mazkur tadqiqotlarda nutqiy vaziyat, o‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy va pragmatik xususiyatlari masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Bugungi kunda o‘zbek so‘zlashuv nutqi fonetikasi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi leksikasi, sintaksisi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos sistema ekanligi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi va uning funksional uslublarga munosabati masalasi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi va adabiy til masalasi muammolari o‘zbek tilshunosligida ma‘lum darajada o‘rganildi. Saksoninchi yillarda o‘zbek tilshunosligida muhim muammolardan biri sifatida ko‘tarilib chiqilgan so‘zlashuv nutqi muammosi qator tilshunoslar, jumladan, B.O‘rinboyev, E.Begmatov, A.Shomaqsudov, M.Tursunpo‘latov, S.Usmonov va boshqalar tomonidan tadqiq etildi.⁴ Biroq bugungi kunda antropotsentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan til faktlarini tahlil qilish tilshunosligimizda yetakchilik qilmoqda. Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan so‘zlashuv nutqini tahlil qilish ham bugungi tilshunosligimizda dolzarblik kasb etadi. Shuni e‘tiborga olgan holda biz bitiruv ishimizda o‘zbek so‘zlashuv nutqining sotsiolingvistik va pragmatik xususiyatlarini yoritib berishga harakat qilamiz.

³ Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистике // Хорижий филология, Тошкент. 2007, 3-сон. – С.5-7; Боймирзаева С. Модаллик умумлисоний категория сифатида //Тил тараққиётининг деривацион қонуниятлари // Республика илмий назарий конференцияси материаллари. -Самарқанд: СамДЧТИ нашри,2009. – Б.192; Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 2005. -223 б.; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд,1993.-27 б.; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. ...диссертацияси. –Тошкент. 2001. -235 б.; Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент.2001. -№4. –Б.54-58.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини.Филол.фан.докт. дисс. автореферати. Т., 2001, 16-б. ва бошқалар.

⁴ **Шомаксудов А.** Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. **Ўринбойев Б.** Функционал услубият ва унинг моҳияти. – Тошкент: Фан, 1992.**Ўринбойев Б.** Ўзбек тилининг сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. –Тошкент: Фан, 1975. **Ўринбойев Б., Ўринбойева Д.** Ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент, 1991.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi o'zbek so'zlashuv nutqining sotsiolingvistik va lingvopragmatik xususiyatlarini sinxron usulda tahlil qilish bo'lib, tadqiqotda ko'zda tutilgan asosiy maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish bilan erishiladi:

- Antropotsentrik tilshunoslikning yangi lingvistik yo'nalish sifatida shakllanishi masalasini yoritish;
- Sotsiolingvistika va lingvistik pragmatikaning o'zaro munosabatini tahlil qilish;
- So'zlashuv uslubidagi nutqiy etiket masalalarini yoritish;
- Nutqning ijtimoiy xoslanishi masalasini tahlil qilish;
- So'zlashuv nutqining leksopragmatik xususiyatlarini tahlil qilish;
- So'zlashuv nutqi frazeologizmlarining sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlash;
- So'zlashuv nutqida ekstralingvistik omillar, noverbal vositalarning sotsiopragmatik xususiyatlarini yoritish;
- Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar berish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot mavzusini yoritishda hozirgi kunda tilshunoslikda keng tarqalgan tasniflash, zidlash, qiyoslash metodlardan keng foydalanildi. Jahon tilshunosligida, shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida keyingi paytlarda qo'lga kiritilgan yutuqlar tadqiqot uchun nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasi materiallari uslubiyat, sotsiolingvistika, leksikologiya, nutq madaniyati yo'nalishlari uchun nazariy manba bo'la oladi.

Ishning joriylanishi. Mavzu yuzasidan ilmiy to'plamlarda 3 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va umumiy hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 83 sahifani tashkil qiladi.

1-bob. Til va nutqqa antroposentrik yondashish tamoyillari

1.1. Antropotsentrik tilshunoslik mohiyati va uning yo'nalishlari

O'tgan asrning oxirida tilshunoslikda sistem-struktur va statik paradigma o'rnini antropotsentrik, funktsional, kognitiv va dinamik paradigma yo'nalishlari egalladi. Tildagi bu holat insonga barcha narsalarning me'yoriy maqomini qaytarib berdi va uning yaratuvchanligini oshirdi. Antropotsentrik paradigma – bu tadqiqotchi qiziqishlarini bilish obyektidan subyektga, ya'ni inson tilda va til inson orqali tahlil qilinadi degani. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigmalarda doirasida bir qator yangi yo'nalishlar rivojlandi.

Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. “Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o'zida va o'zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxsga qaratdi”.⁵

Jahon tilshunosligida til tizimini shaxs bilan bog'liq tarzda o'rganish asosan lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lgan. Xususan, V. fon Gumboldt, L. Vaysgerber, E. Sepir, B. Uorf, A. Potebnya, J. Lakoff, M. Jonson, N. Xomskiy, N. Karaulov, L. Shcherba, F. Sedov kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunolarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o'zida antroposentrik yo'nalish tendensiyalarini namoyon qilsa-da, bu borada tadqiqotlar hali yetarli darajada emas.

Professor N. Mahmudov antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga

⁵ Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: “Фан”, 2013. Б. 3.

muvofig ravishda antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S. Dovlatovning "inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V. A. Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'ziday, tildan, nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqari tasavvur etib bo'lmaydi."⁶

Antropotsentrik tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri kognitiv tilshunoslikdir.

Kognitiv tilshunoslik tilni kodlashtirish va transformatsiyalashda muhim rol o'ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o'rganadi. Kognitiv tilshunoslik dunyoni anglash va bilish, klassifikatsiya, toifalash (kategorizatsiya) jarayonlari qanday amalga oshirilishini tushunish, bilim qanday to'planishi, qanday tizimlar axborotni qabul qilish orqali faoliyatning turli turlarini ta'minlashini tushunib olishni maqsad qilib qo'ygan.

Lingvokulturologiya ham antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishlaridan biri. Lingvokulturologiya kompleks ilmiy fan bo'lib u lingvistika va kulturologiya fanlarining o'zaro kesishishi natijasida paydo bo'lgan. Bu fan yangi qadriyatlarni aks ettiruvchi, til va madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri jarayonining tilda va tildan tashqarida mavjudligini tizimli metodlar yordamida yaxlit bir tizim sifatida tadqiq qiladi. Ko'pchilik mutaxassislar kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya umumiy ilmiy soha –kognitiv fanlar federatsiyasida rivojlanadi deb e'tirof etishadi. Kognitiv tilshunoslik fanining dunyoga kelishi 1956- yilda Massachusset universitetida bo'lib o'tgan simpozium sabab bo'lib, bu simpoziumda olimlar: "SHunday fan borki, bu fan bizni idrok qilishimizni, eslab qolishimizni, o'rganishimizni, rejalashtirishimizni, aqliy jihatdan xulosa chiqarishimizni o'rganadi" degan xulosaga kelishdi. "Kognitiv tilshunoslik " termini o'z ichiga tashkil etilgan va to'plangan bilimlar tizimini saqlash va ularni

⁶ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқ йўллари ва излаб...//Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент, 2012. –Н5.-Б.6-7.

qo'llash, hamkorlikda jaryonlarni o'rganish uchun birlashtirilgan aniq ilmiy fanlar doirasini, shuningdek bu strukturalarni inson miyasida shakllanishini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ularning har biri kognitiv tilshunoslikda o'zining o'rnini va salohiyatiga ega. Kognitiv tilshunoslikning haqiqiy bosqichi uning rivojlanishini shunday davrini aks etadiki, kontseptual tahlilning muhim muammolarini hal qilish hajmi til ko'rinishlarini inson ongi faoliyatini ketma-ketlikda o'rganishda ko'rinadi. Kognitiv lingvistikada kontsept tushunchasi asosiy tushunchalardan bo'lib, ostida inson ongida aks etgan butun dunyo ko'rinish, xotiraning eng kichik operativ ma'noli birligi, mental leksikoni, kontseptual sistema va miya tili tushuniladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan kontsept ongda lokallashtirilgan: kontseptlar ongning kompleks diskret birligi bo'lib, ular yordamida insonning anglash jarayoni amalga oshiriladi. Kontseptlar inson bilimlarini saqlash birligi sifatida ishtirok etadi. Kognitiv tilshunoslikda umum tomondan qabul qilingan shunday bir holat bor, bu kontseptlarning til ob'ektivatsiyasiga egaligi, ya'ni u yoki bu til til vositalari bilan ifodalanishidir.

Lingvokulturologiya lingvistikadagi antropologik paradigmaning mahsuli sifatida XX asrning so'nggi choragida vujudga kelgan deb hisoblanadi. Vilgelm fon Gumboldt o'zining "Inson tillari tuzilishidagi farqlar va uning insoniyat ma'naviyatiga ta'siri" nomli asarida birinchilardan bo'lib til xarakteri va xalq xarakterining o'zaro aloqalari haqida batafsil sharhlab beradi. Turli tillar o'zining mohiyati bilan insonning bilish va tuyg'alariga ta'sir etishi bilan haqiqatan ham turlicha dunyoqarashli hodisa hisoblanadi va shu tildagi o'ziga xoslik millatning mazmun-mohiyatiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham til hodisalarini atroflicha o'rganishda barcha narsalarni qamrab olishi kerak, tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'lashi kabi ta'riflar keng ommalashdi bunday yondashuvning yangiligi shundan iboratki, olim tilning turli shakllari ortida borliqni bilish va idrok qilish usullaridagi farqlarni ko'rib, tilda madaniyatning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi, degan xulosaga

keldi. Gumboldtning g'oyalari XIX-XX asrlar Rosiyada neogumboldchilik doirasida rivojlanib bordi, A.A. Potebnya uning "Til faoliyat sifatida" haqidagi g'oyasini rivojlantirdi. Yevropada neogumboldchilik g'oyasi vakillari L.Vaysgerber, X.Glits, X.Golts - XX asr o'rtalarida tilning strukturaviy xususiyatlaridan kelib chiquvchi fikrlarning mazmuni va fikrlarning mantiqiy qurilishi bilan bog'liq masalalarni o'rganib tadqiq qilishdi. Neogumboldchilarning tadqiqotlari tilning "mazmuniy" tomoniga qiziqish bilan farqlanadi: ular turli tillarning semantik sohasini, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlab tahlil qilib chiqdilar. L.Vaysgerber dunyoni angalashni va uni bilish obyektiga aylanishini til jarayoni sifatida belgilab, "Dunyoning verballashuvi" tushunchasini kiritdi, shuningdek, tilning mazmuniy tomonini belgilab beruvchi va tilning "harakatlantiruvchi kuchi" sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatuvchi "yangi grammatika"ni yaratish zarurligi haqidagi tezisni ilgari surdi.

V. fon Gumboldtning ilmiy izlanishlarini AQShda XIX asr oxiri XX asr boshlarida U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, shuningdek, E.Sepir va B.L. Uorflar davom ettirdilar. E.Sepir va B.L.Uorflar tilning nisbiylik gipotezasini ilgari surdilar, unga ko'ra til anglash jaryonida muhim o'rin tutishi va roli beqiyos ekanligi alohida ta'kidlanadi. Tilning nisbiylik gipotezasiga muvofiq, turli tillardagi turli xil kategoriyalarning ko'pligi, til tashuvchilari bizni qurshab turgan olamni turlicha konseptlashtiradilar, ya'ni tushunadilar.

Antropotsentrik tilshunoslikning mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada yaqqol namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi – matn – retsipyentdan iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, psixolingvistika sohasi XX asrning 50-yillarida psixologiya va tilshunoslikning hamkorligi natijasida yuzaga kelgan. Psixolingvistikaning asosiy tadqiq obyekti nutqiy faoliyat jarayoni hisoblanadi. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga kata hissa qo'shgan A. A. Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi

haqida yozar ekan, “tilning amal qilish fenomenini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish ” ushbu sohaning asosiy maqsadi bo’lishi kerakligini ta’kidlagan edi.⁷

Etnolingvistika – antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til va til egalari munosabatlarini hamda til hodisalaridagi til va etnik madaniyatga xos omillarni o‘rganadi. Etnolingvistika til va til egalari madaniyatiga asoslanib ish ko‘radi. Shuningdek, etnolingvistika qatorida antropolingvistika, etnosemantika kabi yo‘nalishlar tilshunoslik sohasiga aloqador bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini tekshirish bilan shug‘ullanadi. Etnolingvistika XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQShda mahalliy qabilalarning etnografik xususiyatlarining tadqiq qilinishi natijasida shakllanganligi manbalarda aytib o‘tilgan. Ma’lumki, til insoniyat kashf etgan eng muhim va buyuk kashfiyotlardan biri sanaladi. Til ongli mavjudot bo‘lmish inson aql-zakovati mahsuli, ijtimoiy munosabat va taraqqiyotning birlamchi omili sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kungacha inson tili va uning hodisa, qonuniyatlari, shakllanish hamda taraqqiyot bosqichlari, alohida tillarga xos xususiyatlar yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar, izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, o‘tgan asrning boshlaridan boshlab o‘zbek tili va uning hodisalari, grammatik qonuniyat va xususiyatlari yuzasidan ham chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ana shu izlanish va tadqiqotlar natijasida tilimizning bebaho qiyofasi, o‘zigagina xos bo‘lgan tabiati, imkoniyatlari ochib berilmoqda, ular tufayli ona tilimizning keng imkoniyat va xazinasini haqida chuqur taassurotlarga ega bo‘lmoqdamiz. Biroq insoniyat tili, shuningdek, alohida tillarga xos jihat va qonuniyatlar yuzasidan olib borilgan kuzatish va talqinlarga qaramay, hanuzgacha birorta til va uning o‘ziga xos tabiati, nutqiy imkoniyatlari, til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat kabi hodisalarning o‘zaro munosabatlari to‘laligicha ochib berilmaganligi, til bilan bog‘liq barcha masalalar o‘z yechimini to‘la topmaganligi ma’lum. Bunga esa

⁷ Залевская А.А. Введение в психолингвистику.-М., 1999. С. 25.

tilning murakkab hodisa ekanligi, hatto tilning amaliy shakli sanaladigan nutqning ham murakkab tabiatga egaligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Antroposentrik tilshunoslikning yana bir yo'nalishi pragmatik tilshunoslikdir. Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi. "Pragmatika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan biri bo'lib, uning manbasi Ch.Pirs, U.Djems, D.Dpyun, CH.Morris kabi taniqli filosof olimlarning nomi bilan bog'liqdir. Ularning ishlarida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida belgilar sistemasi va lingvistik belgi funktsionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaksis, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi"⁸. Pragmatika grekcha pragmos so'zidan olingan bo'lib, "ish", "harakat" maonolarini ifoda etadi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funktsional qo'llanishini o'rganadi. Shuning uchun ham tilshunoslikning bu yo'nalishi semiotika tarmoqlaridan biri sanaladi. Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch.I.Morris tomonidan ilmiy hayotga olib kirilgan. U semiotikani semantika, sintaktika, pragmatika kabi tarkibiy qismlarga ajratadi. Tilshunoslikda pragmatikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi, yuqorida ta'kidlanganidek, Ch.S.Pirs g'oyalari, shuningdek, Dj.R.Ostin, Dj.R.Serl va Z.Vendlerlarning 60-70-yillardagi mantiqiy-falsafiy qarashlari asosida yuzaga kelgan nutqiy akt, Pola Graysning maononing pragmatik tahlili va L.Linskiy, Dj.R.Serl, P.F.Strosenlarning referentsiya nazariyalari taosiri bilan uzviy bog'liqdir.

Dj.R.Ostin, Dj.R.Serl va Z.Vendlerlarning nutqiy akt nazariyasi ta'limoti ta'sirida lingvistik pragmatikaning shakllanishining ma'lum asoslari bor. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko'ra so'zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning ko'rinishlari sifatida nutqda

⁸ Петров В.В. Философия, семантика, прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХВИ. М., 1985, с.471.

namoyon bo'ladi. Nutqning mazmunini nutqiy aktlar yig'indisi tashkil qiladi. So'zlovchining munosabati esa nutqiy aktlar vositasida shakllanadi. Bunda inson tilining ibtidoiy shakllanishidan tortib, to uning murakkab mazmuniy tuzilishiga qadar bo'lgan lingvistik xususiyatlari nutqiy akt muammolari sifatida talqin etiladi. Nutqiy akt nazariyasiga xos har bir tadqiqiy talqinda nutq subyektining olamni bilish va his qilishdagi tasavvur ko'rsatkichlarining nutqdagi darajalari hisobga olinadi. Nutqiy akt nazariyasiga xos mana shunday markaziy tadqiqiy talqin lingvistik pragmatika tarmog'ining shakllanishi uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Lingvistik pragmatika nazariyasi xususidagi ilk ma'lumotlar tilshunoslik fanining yangi tarmog'i sifatida asrimizning 60-70-yillarida boshlangan bo'lsa-da, bu yo'nalishning tilshunoslik olamida paydo bo'lishiga turtki bo'lgan g'oyalar tarixi XIX asr oxiri va XX asrning boshlariga borib taqaladi. Bu davrda taniqli falsafa namoyandalarining nazariy qarashlarida semantikaning mohiyati aniqlanadi, semiotikaning tarkibiy qismlariga xos differentsial belgilari ko'rsatib o'tiladi.

60-70-yillarda til belgilarining nutqdagi amaliy qo'llanishiga xos kontekstual xususiyatlarini o'rganish bilan tilshunoslikda pragmatik yo'nalish yuzaga kela boshladi. Lingvistik pragmatikaning shakllanishi yirik olim Vitgenshteynning falsafiy qarashlari bilan bog'liq bo'lib, aynan uning ishlarida pragmatika nazariy semiotik tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida ko'rsatib o'tiladi⁹.

Pragmatikaning tilshunoslik fanining yangi tarmog'i sifatida shakllanishi 70-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda lingvistik pragmatika bilan aloqador maqolalarning to'plam holida nashr qilinishi shu yo'nalishning yangi tarmoq sifatida shakllanishi uchun boshlang'ich amaliy va nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Aynan mana shunday holatda lingvistik pragmatika falsafiy g'oyalar taosirida shakllana boshladi. 1977 yildan boshlab, Amsterdamda aynan lingvistik

⁹ Петров В.В. Философия, семантика, прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХВИ. М., 1985, с.471.

pragmatikaga bag'ishlangan maxsus jurnal nashr qilina boshlandi. Jurnal "Nutqshunoslik" va "Tekstologiya"ning turli yo'nalishlari bilan bog'liq masalalarni yoritishga bag'ishlangan maqolalarni to'plam sifatida e'lon qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi¹⁰.

Lingvistik pragmatika so'zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifodasini qamrab oladi.

Lingvistik pragmatikaning tilshunoslik fanining alohida tarmog'i sifatida shakllanishi uning oldiga qator masalalarni qo'yadi. Bizningcha, pragmatikani tilshunoslikning boshqa sohalaridan ajratish va uning tadqiqiy manbasini chegaralash natijasidagina lingvistik pragmatikani yangi tarmoq sifatida talqin etish mumkin bo'ladi. Lingvistik pragmatikaning eng muhim jihatlaridan biri uning boshlang'ich chegarasini aniqlashdir. Shu maonoda tilshunos olim V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisini esga olish lingvopragmatikaning boshlang'ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik mezon bo'ladi: "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, xuddi musiqali pyesa mazmuniy bilimlari uning ijrosi uchun yetarli bo'lmaganidek va buning uchun eng asosiysi o'yin mahorati, layoqatiga ham ega bo'lish lozim"¹¹ bo'ladi. Bizning qarashimiz bo'yicha, so'zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday. SHuning uchun ham to'g'ri va aniq so'zlash uchun hammaga tushunarli bo'lgan semantik bilimlarning o'zinigina bilish yetarli emas, so'zlash va to'g'ri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ega bo'lish lozim. Nutqiy faoliyat - til ham xuddi shundaydir. Inson semantik bilimlarga ega bo'lishi mumkin, bunga ijtimoiy muhitning o'zi har qanday shaxs uchun maolom imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega bo'lishning o'zi insonni so'zlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Inson tildagi barcha semantik bilimlarni

¹⁰ Ахманова О., Магидова И.М. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика. Вопросы языкознания. М., 1978, №3, с.44.

¹¹ Петров В.В. Философия, семантика, прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХВИ. М., 1985, с.474.

bilishi bilan birga, ularni o'z maqsadi yo'lida tanlay olishi va ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Tildagi ayni mana shu jihatlarni lingvistik pragmatika o'rganadi. F.de Sossyur tilni shaxmatga qiyoslash natijasida oboektiv olamdagi predmet, narsa va hodisalarni shaxmat donalari sifatida nomlagan bo'lsa (shaxmat donalarini yurishni bilgan bilan o'yin ko'rsatishni ham bilish kerak), Vitgenshteyn esa tilga xos umumiy qonuniyatlarni "semantik o'yin" tushunchasi bilan ifodalaydi. Semantik o'yin qoidalariga ko'ra har bir nutq suboekti uchun maolom tushunchalar semantika deb qaraladi, har bir semantik o'yinga xos oddiy yurish tartibi ham semantika, o'yin ishtirokchilarining o'ziga xos strategiya tushunchasi pragmatika deb talqin etiladi. V.V.Petrovning ta'kidlashicha, Vitgenshteyn aynan semantik o'yin ishtirokchilariga xos strategiya tushunchasini eotibordan chetda qoldiradi. Vitgenshteyn shaxmat o'yinining har bir alohida

partiyasi singari nutqiy faoliyat jarayonidagi nutq ishtirokchilarining suhbatini "semantik o'yin" tushunchasi deb talqin etadi. V.V.Petrov esa lingvistik pragmatika shaxmat o'yinidagi alohida partiyalarni emas, balki o'yin ishtirokchilariga xos "yurish strategiya"sini nazarda tutishni to'g'ri ko'rsatadi. Bizningcha ham, "semantik o'yin" tushunchasi mohiyatiga xos nutq ishtirokchilarining fikr ifodalash taktikasi haqiqiy maonoda lingvopragmatik tadqiqiy oboekt deb ko'rsatilsa, mutlaqo to'g'ri bo'ladi. Lingvistik pragmatikaning shakllanishi xususidagi asosiy maolumotlar N.D.Arutyunova, Ye.V.Paduchevalarning ishlarida uchraydi. Bu ishlarda taokidlanishicha, anoanaviy tilshunoslikka oid juda ko'p ishlarda semantika entsiklopedik bilimlarga tenglashtirilgani, pragmatika to'g'risida esa umuman tasavvurning yo'qligi aytib o'tiladi. Keyinchalik esa semantika masalalarini tadqiq etish jarayoni pragmatik hodisalarga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi.¹² Shu asosda mavjudlikdagi voqeliklarning tildagi ifodalanish darajasi pragmatik bilimlar sifatida talqin etila boshladi. Tilshunoslikning bu yo'nalishi struktural tilshunoslikdan farqli tarzda til va nutq muammolarini insonning nutqiy faoliyati bilan bog'liq holda tadqiq eta

¹² Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики. В кн.: НЗЛ. Вып. ХВИ. М., 1985, с.3-42.

boshladi. Borliqdagi voqeliklarning tildagi ifodasi endi o'zining mantiqiy, falsafiy va lingvistik talqiniga ega bo'la boshladi.

Ko'rinadiki, semantika, sintaksis va pragmatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari fan sifatida teng darajada rivojlanmadi. Semantika, sintaksis yo'nalishlari har tomonlama o'rganildi, pragmatika esa tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoldi. Buning natijasida tilga xos bo'lgan semantik va sintaktik ilmlar talqini har jihatdan mukammallashib borgani holda konkret vaziyat bilan aloqador nutq suboekti ishtirok etgan real nutqiy jarayonga xos tilshunoslikning pragmatik yo'nalishi o'zining mukammal tadqiqiga ega bo'lmadi. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida bu masalalar, umuman, tilshunoslar diqqatidan chetda qoldi.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, lingvistik pragmatikaning shakllanishi o'z-o'zidan semantika va pragmatika muammolarining farqlanishidan boshlanadi. Ma'lumki, har qanday tilning mantiqiy tahlili natijasida ikki nazariy konsepsiyani ajratish lozimligi ko'zga tashlanadi. Bular semantik va pragmatik nazariy konsepsiyalaridir.

Lingvistik pragmatika xususida fikr yuritayotgan har bir tadqiqotchi diqqat markazida birinchi darajali masala sifatida semantika va pragmatikaning farqlash muammosi turadi. Bu jihatdan boshqa tilshunoslar kabi R.S.Stolneyker va V.V.Petrov qarashlari bir xildir. Jumladan, "tildan inson turli maqsadlarda, asosan, so'zlovchi niyati aks etgan propozitsiyani ifodalash maqsadida foydalanadi. Propozitsiyaning o'zi haqiqiylik shartini namoyon etuvchi mavhumiy mohiyatdir. Semantika tilning bu aspektini, aynan, propozitsiyani o'rganadi"¹³. Semantik nazariya pragmatikadan o'zining xususiyatlari - tadqiqot oboekti, nazariy umumlashtirish va maqsad shakli bilan farqlanadi. Semantika konkret vaziyatdagi qo'llangan o'zgarmas "mazmunliy invariant"larni o'rgansa, pragmatik tadqiqotning maqsadi esa aynan konkret vaziyatda qo'llangan til hodisalari - variantlarni tadqiq etish bilan shug'ullanadi. V.V.Petrovning ta'kidlashicha, semantika ideallashtirgan oboektlarga taalluqli bo'lsa, individual, empirik oboektlar esa pragmatika oboekti

¹³ Столнейкер Р.С. Прагматика. НЗЛ. Вып. ХВИ. М., 1985, с.420.

sifatida”¹⁴ talqin etiladi. Ko’rinadiki, semantika tildagi o’zgarmas maonolar - invariantlarni tadqiq etadi, pragmatika esa konkret vaziyat bilan uzviy bog’liq bo’lgan variantlar asosida ish ko’radi va semantika uchun bazis vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, V.V.Petrovning to’g’ri ko’rsatishicha, bu ikki tadqiqot oboektining o’zaro farqlanishi nazariy kontseptsiya maqsadi, mohiyatiga ko’ra aniqlanadi. Pragmatik nazariya semantika singari til va borliq o’rtasidagi munosabatlarni tushuntirmaydi, balki o’sha vaziyatdagi oshkora bilimlarga xos suboektning yashirin imkoniyatlarini e’tiborga oladi¹⁵.

F.Kiferning ta’kidlashicha, mazmun va shakl tasviri sintaksis va semantika bo’lib, tilning to’liq tasviri uchun buning o’zi kifoya qilmaydi, buning uchun til faktlarini tadqiq etuvchi kontekst bilan uzviy bog’liq bo’lgan lingvopragmatik¹⁶ tahlil va talqin ham zarur bo’ladi. Til hodisalarini tadqiq etishda bu uch yo’nalish hisobga olingandagina mukammal lingvistik tadqiqot yuzaga keladi.

1.2. Pragmatikalingvistika va sotsiolingvistika munosabati

Sotsiolingvistika va pragmalingvistika o’zaro aloqadorlikdagi sohalar bo’lib, har ikki sohaning umumiy jihatlari nutqiy vaziyat, muloqot xulqi, nutqiy odob kabi masalalarda tutashadi va bir-birini to’ldiradi.

Ma’lumki kishilar jamiyatda yashash jarayonida undan ma’lum bir andazalarni oladilar, o’sha ijtimoiy muhitga mos tarzda harakatlanib, hayotda ba’zi sotsial vazifani bajaradilar. Har qanday shaxs o’zining bajarib turgan ijtimoiy imkoniyatlariga muvofiq ravishda meoyoriy so’zlash majburiyatiga ega bo’ladilar, bu nutq esa so’zlovchi bajarayotgan ijtimoiy vazifa xususida ma’lumot beradi. Buni nutqning sotsial xoslanishi deb yuritish ham mumkin bo’ladi. Ma’lum ijtimoiy vazifa bajaruvchi har qanday shaxs nutqi kasb nuqtai nazaridan maxsus til

¹⁴ Петров В.В. Философия, семантика, прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХВИ. М., 1985, с.475.

¹⁵ Шу асар. 475-бет.

¹⁶ Кифер Ф. О роли прагматики в лингвистическом описании. НЗЛ. вып. ХВИ. М., 1985, с.333.

belgilariga ega bo'ladi. Bu ana shu nutq subyektining psixologik, mantiqiy hamda falsafiy munosabati bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy vazifa tushunchasi nutq subyektining egallab turgan vazifasi yoki bajarib turgan kasbi ma'nosini anglatadi.

- ... *Ertadan boshlab yurtga o'ttuz ikki tangadan soliq sohasiz.*

... *Azizbekning bu zolimona buyrug'iga qarshi qattiq so'zlar aytishka o'ylasa ham achchig'ini qanday kishiga aytilishini o'ylab o'zini yig'di.*

- ... *Menga qolsa bu kunlarda o'ttuz ikki tanga emas, o'ttuz ikki qora pul solish ham og'irdir... hojining ters so'ziga chidolmagan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi:*

- *Nima deysan?!*

... *SHu daqiqada ishning oldini olmasa, endi gap faqat Azizbekning jallod chaqirishig'a kelib qoldi:*

- *Taqsir, siz yig', der ekansiz ertaga emas, bu kundanoq yig'a boshlayman. Yurt qani bermasin-chi! Faqat menga sizning buyrug'ingiz kifoyadir. (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar").*

Nutq subyektining ijtimoiy vazifasi faqat uning kasbi bilangina chegaralanib qolmaydi. Nutq subyekti o'zining asosiy sotsial vazifasidan tashqari ota, er, xaridor, bemor, qo'shni kabi qator qo'shimcha va doimiy vazifani ham bajaradi.

- *Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang birovni ishontirib qo'ygan: bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma'qul ko'rinmaydi. (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar").*

Bu ijtimoiy vazifani bajarish nuqtayi nazaridan nutq subyekti o'z nutqi orqali bayon qilishi lozim bo'lgan axborot ko'rinishlarini nutq vaziyatiga hamda uslubiy jihatlariga ko'ra "boshqara olish imkoniyati"ga ega bo'lishi kerak. Ana shu "boshqara olish imkoniyati" nutqning psixolingvistik yo'nalishini tashkil etadi.

Yuqoridagi ijtimoiy vazifalar o'ziga xos kodlanuvchi til elementlariga ega bo'lib, so'zlovchi nutq vaziyatiga ko'ra shu elementlarni almashtirib turadi. Suhbatdoshlar nutq mazmunidan ijtimoiy vazifa bajarayotgan har bir shaxs axloqiga xos meoyoriy element chegarasini ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi, ular oddiy talaffuzning o'zidayoq sotsial vazifaga xos ma'noni his eta oladilar.

Sotsial vazifa belgilari sifatida dastlab nutqiy me'yor tushunchasi ajratib olinadi. So'zlovchining doimiy ijtimoiy vazifasi rasmiy munosabat belgilariga ega bo'ladi. Bunga ko'ra so'zlovchi o'zi bajarib turgan kasb nuqtai nazaridan boshliq, kasbdoshlari hamda xodimlariga nisbatan rasmiy munosabatni ifoda etuvchi til va nutq elementlaridan foydalaniladi. Bu etapda uning huquq va majburiyatlari faqat rasmiy ohangni talab etadi. Hamma sotsial vazifada bo'lganidek, bunda ham so'zlash ohangi, harakatlanish tempi, ayniqsa, imo-ishora tili o'ta darajada shakllangan bo'ladi. So'zlashuvchilar o'rtasidagi bunday munosabat sotsial aspektga ko'ra mutanosib munosabat deb hisoblanadi, biroq bu nutqiy munosabatning mazmuniy aspekti nomutanosib munosabat ekanligini isbot etadi. So'zlashuvchilar orasidagi huquq va majburiyatga ko'ra har qanday shaxs rasmiy ohangdan foydalangani holda nutqda hokimlik va itoatkorlik elementlari buyruq hamda bo'ysunish kabi nutqiy aktlarni yuzaga chiqaradi. Har qanday rivojlangan tilda sotsial vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi til elementlari mavjud bo'ladi. So'zlashuvchilar ana shu til elementlaridan foydalanib, o'zlari bajarib turgan sotsial imkoniyatlarini nutq orqali bayon etadilar.

L.P.Krisin nutqiy aloqa-aralashuv va so'zlovchilarning sotsial vazifalari haqida so'z yuritib, aloqa-aralashuv vaziyatida ishtirok etuvchilar nutqini ikki guruhga ajratadi: 1. Mutanosib nutq. 2. Nomutanosib nutq¹⁷.

Mutanosib nutqiy muloqotda hatto jins, yosh nuqtai nazaridan ham bir xillik talab qilinadi.

Salti endi gap ochdi.

¹⁷ Крысин Л.П. Речевое общение и социальные роли говорящих. В кн.: Социально-лингвистические исследования. М., 1976. с.49.

- *Erta saharlab chopganim bekorga emas.*
- *Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi.*
- *Nimaga, o'rtoqjon?*
- *O'zingiz bilgan sovchilar balosida... Qish ichi keti uzilmadi.* (Cho'lpon)

Ushbu misolda kommunikantlar nutqida ularni teng ekanligi “o'rtoqjon!” so'zining lug'aviy ma'nosidan, ayol kishi ekanligini gap sovchilar haqida borayotganligidan bilib olamiz. Demak, bunda nutqiy muloqot ishtirokchilari sotsial mavqelari jihatiga ko'ra tobe emas. Ularning o'zaro tengligi, ayol kishi ekanligi, simmetrik muloqotda erkin fikrlash imkoniyatini yaratadi. Simmetrik nutq tushunchasi ostida 2 xil holatni kuzatamiz. Birinchi holatda simmetrik nutqiy munosabatga kirishuvchi shaxslar simmetriya termini nazariyasiga ko'ra, tenglik asosidagi “samimiylik” munosabatida bo'ladilar. Bu holatga ko'ra, ularning nutqida “teng huquqlilik”, “samimiylik” ottenkasi o'z ifodasini topadi.

Simmetrik nutqiy munosabatning ikkinchi ko'rinishida kommunikantlarning o'zaro yoshi, jinsi, sotsial mavqeiga ko'ra tenglik munosabati bo'lsa-da, biroq nutqiy muloqotda simmetrik munosabatning salbiy ko'rinishi ko'zga tashlanadi.

Asimmetrik nutqiy munosabat tushunchasida esa o'zaro nutqiy muloqot jarayonida nutq ishtirokchilaridan birining sotsial jihatdan “tobeligi” va “ustunligi” sezilib turadi.

Umumtilshunoslik ilmda ta'kidlanishicha, tilni sotsial hodisa sifatida tushunish hamda aloqa-aralashuv va fikrlash-anglash quroli sifatida tadqiq etishning ikki yo'nalishi mavjuddir. Bu tadqiqotning birinchi yo'nalishiga tilni jamiyatning mahsuli sifatida o'rganish, shuningdek, tilga, uning strukturasiga, uning shakllanish qonuniyatlariga turlicha umumiy sotsial faktorlarning ta'sirini o'rganish kiradi. Ikkinchi yo'nalish esa, til jamiyat instrumenti, fikrlash-anglashning quroli va aloqa-aralashuv (kommunikatsiya) quroli sifatida tadqiq etishdir. Bu yo'nalish o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. Tilni fikrlash-anglashning quroli sifatida o'rganish.
2. Tilni aloqa-aralashuv, kommunikatsiya quroli sifatida o'rganish.

Aloqa-aralashuv jarayonida tildan foydalanishning ikki asosiy maqsadi mavjud bo'ladi: a) nimadir xususidagi axborot bayoni; b) odamlarning ruhiyati va axloqiga ta'sir etish.

Shunday qilib, tilning ayrim kishilarning axloqi va ruhiyatiga ta'sir etish vositasi sifatida qo'llanishi pragmalingvistikaning predmeti hisoblanadi. L.A.Kiseleva lingvistik pragmatika sotsiolingvistikaning qismlaridan biri deb hisoblaydi.¹⁸

Nurmonov pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyati yoki kontekst zarur bo'lgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi. Bu quyidagi hollarda ro'y beradi:

1) jumla tarkibida sen, hatto, faqat, hozir singari deskriptiv bo'lmagan so'zlar ishtirok etganda.

Amaliy sintaksis muammolarini hal qilishda CH.Fillmorning «tushunish mazmuni» g'oyasi katta yordam beradi. CH.Fillmor mazmuniy nazariyani «tushunish mazmuni» va «haqiqat mazmuni» nazariyalariga ajratgan holda, «tushunish mazmuni» nazariyasi ostida lisoniy matnlar bilan jarayon o'rtasida mavjud bo'lgan munosabat haqidagi umumiy tasavvurni tushunadi.

«Tushunish mazmuni»ning vazifasi lisoniy matn bilan uning matnlar qurshovida to'liq tushunilishi o'rtasidagi aloqa mohiyatini ochishdan, jumlaning u orqali ifodalanayotgan vaziyat bilan aloqasini ko'rsatishdan iborat.

So'zlashuvchilarning lisoniy bilimi deganda, lisoniy birliklar bilan vaziyat elementlari o'rtasidagi munosabatning inson ongida aks etishi tushuniladi. Bunday

¹⁸ Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л., 1978, с.100-101.

munosabatning aks etishini izohlashda, CH.Fillmor kiritgan *freym* atamasidan foydalanish mumkin.

Ma'lumki, har qanday tildagi so'zlar ma'lum belgilariga ko'ra u yoki bu tematik guruhlarni, mazmuniy maydonlarni hosil qiladi. Masalan, *opa, aka, ota, ona, uka, singil* va boshqalar. Bu so'zlarning har qaysisi o'ziga xos individual ma'noga ega bo'lishi bilan birga, hammasi uchun umumiy bo'lgan, har birida takrorlanadigan umumiy ma'no ham mavjud. Bunday bir guruhga birlashgan so'zlarni bir butun sifatida o'rganish qulaylik tug'diradi. Chunki har bir guruh o'zaro bog'langan olam haqidagi bilimlarimizning lisoniy gavdalanishlari hisoblanadi. SHu sababli har qaysi guruhning u yoki bu birligining ma'nosini to'lig'icha tushunish uchun bu birlik mansub bo'lgan guruh ifodalayotgan olam, vaziyat hamda uning uzvlari o'rtasidagi o'zaro aloqa haqidagi bilimlarimiz muhim ahamiyatga ega. Ma'lum guruhga mansub bo'lgan so'zlar ortidagi o'zaro bog'liq bo'lgan olam uzvlari haqidagi bilimimiz *freym* sanaladi.

Masalan, besh bahoning qimmati uning qaysi baholash tizimiga mansubligiga bog'liq. Agar besh balli tizimda besh baho bilan baholangan shaxsning quvonchi cheksiz bo'lsa, o'n balli tizimda besh bilan baholanganligini bilgan shaxsga bu baho hyoch qanday quvonch keltirmaydi. SHuning uchun «sen besh baho bilan baholanding» degan jumlaning ma'nosiga to'la tushunish uchun faqat shu jumlada ishtirok etgan leksik uzvlar orqali ifodalangan axborotgina yetarli emas. Bu axborot shu baho tizimi haqidagi bilimimiz bilan to'ldiriladi;

2) jumla kishilar o'rtasidagi aloqa jarayonida vujudga keladi. SHuning uchun ham ularning har birida shaxsning izi o'z ifodasini topadi. CHunki «Til borliqning uyi» (M. Haydegger), unda insoniyatning ma'naviy-ruhiy olami aks etadi¹⁹.

¹⁹ Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания //Новое в зарубежной лингвистике. XXIII. – М., 1988. – С. 63.

Jumla mazmunini so'zlovchi bilan uzviy bog'lab turgan so'zlar ham pragmatikaning tadqiqot ob'ektidir. Bevosita modusni ifodalovchi kirishlar, baho bildiruvchi so'z va vositalar sintaksisi pragmatika tomoni orqali o'rganiladi;

3) insonning sub'ektiv ruhiyatini aks ettiruvchi diskurs ham pragmatikaning o'rganish doirasiga kiradi. E.Benvenistning fikriga ko'ra, so'zlovchi va tinglovchini taqozo qiluvchi va so'zlovchining tinglovchiga qandaydir yo'l bilan ta'sir qilish maqsadini aks ettiruvchi har qanday jumla diskurs (nutq), hisoblanadi²⁰. Jumlaning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ob'ektiv mazmun bilan u ifodalagan shakl o'rtasidagi munosabat, shakl va mazmun o'rtasidagi tengsizlik holatining nutqdagi ta'siri kabi masalalar ham pragmatikaga kiradi;

4) «men» va «boshqalar» o'rtasidagi munosabatni ko'rsatuvchi nutqiy odat (etiket), hurmat ifodalash usullari ham pragmatikaning o'rganish sohasi sanaladi;

5) pragmatikaning o'rganish sohalaridan eng muhimi presuppozitsiyadir. Masalan, «Ahmad keldi» jumlasidan qandaydir shaxsning kelganligi, qaerdan qaerga va nima maqsadda kelganligi haqidagi axborot qorong'i bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchining oldindan shunday ma'lumotga, umumiy bilish fondiga ega bo'lishi bevosita ifodalanadigan axborotning so'zlovchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.²¹

Pragmalingvistika va sotsiolingvistika sohalari haqidagi bu fikrlarning barchasi to'g'ri, biroq ularning barchasi ham ma'lum darajada izoh talab qilishini M. Hakimov ta'kidlab o'tadi. Jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy voqeliklarning tildagi ifodasi hamda ularning umummillat tiliga ta'siri kabi masalalar sotsiolingvistika atamasida mujassamlashganligini aytib o'tadi. Misol tariqasida tildagi ba'zi so'z yoki iboralarning millat hayotidagi sotsial o'zgarishlar ta'sirida isteomolga kirishi yoki isteomoldan chiqishi, shuningdek, millatning urf-odatlarini bilan aloqador holatlarning tilning ba'zi qatlamlari bilan bog'lanish va ta'siri kabi yo'nalishlar bevosita ijtimoiy tilshunoslik predmetini tashkil etishini, tilning

²⁰ Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка, Событие. Факт. – М., 1988. – С. 3.

²¹ Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент, 2012. 3 жилдлик. 3–жилд.Б.196.

sotsiolingvistik aspektda tadqiq etilishi qaysi jihatlari bilan tilshunoslikning lingvistik pragmatika sohasiga yaqinlashishi yoki tadqiqot predmeti qaysi nuqtada ikkala soha uchun bir obyektga aylanishi nisbiy ekanligini uqtirib o'tadi. Olimning fikricha, tadqiqot predmeti bir bo'lsa-da, bu ikki soha mana shu vaziyatda o'zining tadqiq etish usuli bilan ma'lum darajada farqlanadi. Pragmalingvistika sohasi uchun so'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat, sotsiolingvistika uchun til va nutqning shakllanishidagi uchun sotsial faktorlarning ta'siri asos qilib olinadi.²²

Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o'rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi. "Muhit tushunchasi o'z ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, ya'ni turli davr va xalqlarning madaniyatlari muhit tushunchasiga kiradi"²³. Demak, inson yashab turgan tabiat va jamiyat muhitni tashkil qiladi. Inson o'sha muhitda yashar ekan, bu uning fe'l-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. "Insondagi o'zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta'sir ko'rsatadi."²⁴ Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bo'lish shakli – nutqqa ta'siri juda katta. Inson mansub bo'lgan muhitning tabiati uning nutqida ham yorqin namoyon bo'ladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, o'qish tartibi, sharoiti, atrof-muhitning o'zgarishi uning nutqida ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muhitning tilga ta'siri masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Tadqiqotchi S.Mo'minovning mazkur masala bilan bog'liq tadqiqot ishida ham ijtimoiy muhitning muloqot xulqiga ta'siri, ya'ni qishloqliklar va shaharliklar

²² Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент, 2015. Б.

²³ Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини ("Юлдузли тунлар" романи мисолида): филол.фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 1999. 11–бет.

²⁴ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: филол. фанлари д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2000. 136-бет.

nutqining o'ziga xos farqli jihatlari asosan muhit bilan bog'liq ekanligi ta'kidlangan. Sotsiolog va psixologlar ham kommunikantlar nutqining o'ziga xos tarzda shakllanishida ijtimoiy muhitning alohida o'rin tutishini ta'kidlaydilar.

Bob bo'yicha xulosa

Ishning birinchi bobi yakunida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liq bo'lib, . bu yo'nalishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o'zida va o'zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxsga qaratdi.

2. Jahon tilshunosligida til tizimini shaxs bilan bog'liq tarzda o'rganish asosan lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lmoqda.

3. Sotsiolingvistika va pragmalingvistika o'zaro aloqadorlikdagi sohalar bo'lib, har ikki sohaning umumiy jihatlari nutqiy vaziyat, muloqot xulqi, nutqiy odob kabi masalalarda tutashadi va bir-birini to'ldiradi.

4. Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o'rganar ekan, ijtimoiy muhitni, ya'ni oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi

2-bob. So'zlashuv nutqi leksikasining sotsiopragmatik xususiyatlari

2.1. Nutqning ijtimoiy xoslanishi

Sotsiolingvistikada nutqning ijtimoiy xoslanishida nutq tushunchasi lingvistikada tushuniladigan til (lison)ning bevosita voqelanishi, uning moddiy shaklda yuzaga chiqishi tushunchasidan farq qiladi. Ya'ni sotsiolingvistikada nutqning ijtimoiy xoslanishi deganda, umumijtimoiy imkoniyatlarning muayyan shaklda voqelanishi emas, balki qandaydir alohida bir guruh uchun me'yor vazifasini o'taydigan umumiylik bilan xususiylilik oralig'i tushuniladi. Tilshunoslikda adabiy tilga, shevalarga nisbatan bu ma'noda me'yor tushunchasi qo'llanadi. Bundan tashqari, bu tushuncha lingvistikaning argo va jargonlariga ham yaqin turadi, chunki ular ham ma'lum bir ijtimoiy tabaqa uchun me'yor sanaladi.

Ma'lumki, inson tabiat va jamiyat mahsuli sifatida ularning qurshovida yashaydi. Ayni paytda, ularning oliy mahsuli ham sanalib, ana shu qurshovni narsa va predmet shaklida, voqyea va hodisa tarzida miyasida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jarayonda material hisoblangan tilning ahamiyatini hiech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Shuning uchun ham til tafakkur quroli deb bejiz aytilmaydi. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi. Tilning inson uchun fikrlash vositasi bo'lishini, moddiy asos sifatida xizmat qilishini hali birinchi bosqich deyishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichda esa fikrlash natijasida, tafakkur mahsuli reallashmog'i, ya'ni fikrlash markazi bo'lgan miyadan tashqariga chiqishi lozim. Bunda esa tilga bo'lgan ehtiyojning ikkinchi bosqichi boshlanadi - u kommunikativ vazifani bajarishga kirishadi. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning turli tillarda turlicha nomlanishidan qat'iy nazar, mana shu jarayonda u insonlar faoliyatida fikrlash va o'zaro ijtimoiy munosabat - muomala vositasi, materiali bo'lib qolaveradi. Ammo til muomala vositasiga aylandimi, uning tabiiy ravishda imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi.

Bu holni uchinchi bosqich deb atash mumkin. Bosqichlar soni ortib boravergani sari tilning ijtimoiylik imkoniyati ham tobora kengayishi ma'lum bo'lib qoladi. Ya'ni, inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham yetkaziladi. Demak, tilga bo'lgan munosabatda to'rtinchi bosqich yuzaga keladi.

Jamiyatda turli tabaqa, turli ijtimoiy qatlam, turli yosh va jins vakillari yashaydi. Buning natijasida nutqda ijtimoiy xoslanish yuzaga keladi.

Nutqning ijtimoiy xoslanishi uslubiyat bilan bevosita aloqadordir, chunki badiiy, ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik kabi uslublar sohaviy me'yorlardir. Shuning uchun nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi uslubiyat doirasida tahlil va tadqiq etilishi mumkin. Lekin bunda ham o'ziga xos farq mavjud: uslubiyat, asosan, lisoniy vositalrni o'rganadi, nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvida esa nutqiy ifoda vositalari paralingvistik, ekstralingvistik vositalar bilan birgalikda tadqiq qilinadi va bu nuqtada sotsiolingvistika etnografiya, odat, axloq fanlari bilan kesishadi. Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi rang-barang bo'lib, ularning ichida quyidagi turlarini ajratish mumkin.

1. Nutqning so'zlovchi va tinglovchining madaniy saviyasiga ko'ra xoslanishi. Nutqiy muloqotninng qanday kechishi, unda lisoniy vositalarning qay birinining qo'llanilishi, bu vositalar muloqot ishtirokchilariga handak ta'sir etishi muloqotning tarkibiy qismlari bo'lmish - ichki va tashqi omillarining o'zaro hamkorligi Bilan belgilanadi. Bunda eng kichik bir xususiyat ham (chunonchi, ko'rinishi boshqa millat vakili bo'lgan holda boshqa millat tilida so'zlashishi, yoki bir xil kiyinishda bo'lib, boshqa ijtimoiy tabaqa vakili nutqiy birliklarini qo'llashi v.h.) juda kuchli - ba'zan qao qiluvchi ta'sir kuchiga ega. Shuning uchun nutqiy muloqot ta'sirchanligi ta'minlash uchun "ikkinchi darajali" narsa bo'lishi mumkin emas - muloqot tarkibiy qismlarnining garmoniyasi, simmetriyasigina uning ta'sirchanligi va mukammalligini ta'minlaydi.

Nutqning xarakteri soʻzlovchi va tinglovchining madaniy saviyasi bilan ham uzviy bogʻliq. SHuning uchun muloqot shakl va tarzini belgilashda, tasnif etishda kommunikantlar saviyasi muhim asoslardan boʻlib xizmat qila oladi.

Yoshi 70-80larga borgan, omi qariya nutqi. *Negadir qariyaning qulogʻi ogʻir boʻlsa kerak, degan xayolda ovozimni balandlatib ahvol soʻradim:*

- *Bardammisiz otaxon?*

- *Xudaygʻa shukur, tetikman - dedi chol bamaylixotir. - Nasibamizni jeb juribbiz, bolam. Leninniyam koʻrdik. Kal leninniyam koʻrdik... Ustixonibchi boʻldik.*

- *Siz Leninni koʻrganmisiz? - deb soʻradi mezbolar orasidagi yosh muxbir hovliqib.*

- *Oʻzini koʻrmagan chiqarman-ov, - dedi chol. - Ammo Lenin degan kolxozda ishladik. Kal Lenin degan kolxozda ishladik. Soʻgʻin yana birov bor edi. Temirniyoziq.*

- *Temiryazov, - dedi muxbir aniqlik bilan. - Boʻlsa - bordir, - dedi chol. - Oʻsha Temirniyoziqda ham ishladik.*

Muxbir bola maxmadanagina ekan. Cholni gapga soldi. - Buva, siz muʼtabar odamsiz. Koʻp joylarda boʻlgandirsiz? - Menma? Chol qaddini rostladi. - Boʻgʻanda qandoq! Chiyoli bozordi koʻrdim. Chiroqchini koʻrdim. Ulim motosiklda Kosongadavur obborib keldi. E, bolam, bu dunyoda men koʻrmagan yurt qolmadi!

Muxbir bola "Meditina ensiklopediyasi"ni xoʻp hijjalagan shekilli, cholni tagʻin soʻroqqa tutdi: - Uzoq umr koʻrishingizning siri nimada, deb oʻylaysiz? Zelinni koʻp isteʼmol qilgandirsiz? Sut-qatiq ichgandirsiz? - Zelin-peliningni bilmadim-ku, qatiqni koʻp ichgan chigʻarman. Chakkini koʻp jegan chigʻarman...

- *Goʻshtdan parhez qilganmisiz?*

- Ettamma! Chol astoydil hayron bo'ldi: - Et jemagan jigit jigitba? Do'svoyi qo'ydi quyrug'ini jeganman!

- Kechirasiz-ku, ichkilik masalasi...

- Bo'g'an! - dedi chol quvlik bilan bosh iring'ab. - Ammo bu ukkag'ardan naf ko'rgan odam juq. Og'zinga olmay qo'yg'animga ush jil bo'ldi.

(O'.Hoshimov)

Nutqning so'zlovchi va tinglovchi ijtimoiy mavqeiga ko'ra ixtisoslashuvi. Bu jarayonda nutqning asimmetrik ko'rinishi yuzaga keladi. Ijtimoiy mavqei yuqori shaxs nutqida o'ziga bino qo'yish, mensimaslik ottenkalari, ijtimoiy mavqei quyi bo'lgan kommunikant nutqida tobelik ottenkalari sezilishi mumkin: *Ikki mirshab mingboshini yechintirmoqqa boshladi. Mingboshi hali ham boyagi kulishida davom etardi:*

— Obbo betavfiq-ey. Namozshomda uxlaganini! Mehmon- xonadan ko'zlarini uqalay-uqalay Miryoqub chiqib keldi. U, hali ayvondan tushmay turib:

— Hormang, xo'jayin! — deb qichqirdi. Mingboshi yana o'sha kulish bilan o'tirgan joyida unga tomon evrildi:

— Ha, xudo bexabar! Nima bu bemahal uyqu? Namozshom paytida-ya!

— Ha, xo'jayin, shunaqa... Sizni kutib o'tirib, uxlab qolibman.

— Qachon kelib eding?

— Kech peshinda. Shundan beri yo'lingizga ko'z tutib o'tiribman.

— Qani o'tirganing? Uyquni uribsan-ku! Qani, nima gaplar bor? Yangi gaplardan gapir.

— Yangi gapni sizdan eshitamiz. Shaharda edingiz. Kimlarni ko'rdingiz?

— Kimni ko'rardim? Noyib to'rani ko'rdim.

— Nima gap ekan?

— Nima gap bo'lardi. Beriroq kel!

Mingboshining bu amri bilan unga tomon borayotgan Miryoqub mirshablarga ishorat qildi, ular uzoqlashdilar. (Cho'lpon "Kecha va kunduz")

Nutqning soʻzlovchi va tinglovchining jinsiga koʻra ixtisoslashuvi. Sotsiolingvistikada nutq kommunikantlarning millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilariga qarab ixtisoslashadi.

Muloqot oʻziga xos qonun-qoidalarga - meʼyorlarga ega va biz bir holatdan ikkinchi holatga oʻtar ekanmiz, onglimi-ongsizmi shu holat uchun meʼyor boʻlgan muloqot normalariga boʻysunamiz, oʻzimizni har dafʼa yangi boʻlgan holatimizga moslashtiramiz, oʻzgarib turamiz. Nutqiy vaziyatga moslashamiz. Bu muloqot shakli, mazmuni va vositalarini tanlashda (resp. muloqotni tasniflashda) nafaqat kommunikantlarning saviyasi, balki ularning jinsi - ayol yoki erkak jinsiga mansubligi ham ahamiyatlidir.

Muloqotning jinsiy xoslanishi ham taʼsir birliklari orasida muhim ahamiyat kasb etadi. Erkak va ayol biologik va fiziologik tomondangina emas, balki muloqot xulqi (muomala tarzi, usuli) jihatidan ham farqlanadi, albatta. Masalan, oʻzbek xotin-qizlari nutqiga xos **aylanay, girgittan, oʻrgilay, qoqndiq** kabi soʻzlar ijobiy maʼno nozikligini ifodalovchi leksik vosita sanaladi. Ular koʻproq keksa ayollar tomonidan qoʻllanadi. Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatini **voy** undovining qoʻllanilishi asosida ham oydinlashtirish mumkin. Maʼlum boʻlishicha, **voy** undovi oʻndan ortiq maʼno nozikligini ifodalaydi. Bularga **sevinish, erkalash, achinish, qoʻrqish, havas, sarosimalanish, koyish, alam** singari holatlar kiradi. Oʻzbek erkak va ayollar nutqining leksik, frazeologik jihatdan xoslanishi, ayniqsa, qargish hamda soʻkishlarda yanada yaqqolroq namoyon boʻladi. Biroq bu dolzarb mavzu ayrim kuzatishlarni hisobga olmaganda uzoq vaqt tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib keldi.

Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi boʻyicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud. Turkiyshunoslikda bu borada N. I. Grodekov (qozoq va qirgʻizlar misolida), E. D. Polivanov (Samarqand eronilarining oʻzbekcha nutqi misolida), A. N. Samoylovich (qozoqlar va oltoylar

misolida) larning kuzatishlari, shuningdek, qator turkiyshunos-dialektologlarning asarlarida mazkur masala bilan bogʻliq koʻplab qaydlar bor.

Ayollar nutqiga xos xususiyatlarni quyidagi matn orqali ham kuzatishimiz mumkin:

Bu A'lobush edi. Shahodat xola jilmayib qo'ydi. Ko'p o'tmay bir savat bug'i chiqib turgan kulcha ko'tarib yo'lakda A'lobushning o'zi ko'rindi.

— *Eshikda nima qilib turibsiz, **tasadduq?** — dedi A'lobush Shahodat xolaga boshdan-oyoq qarab chiqib. — Ichkariga kiring. Choyim tayyor.*

— *Shoshib turibman, rahmat, — dedi Shahodat xola.*

— *Ha, yo'l bo'lsin, **tasadduq?** — so'radi A'lobush, yangi kavush-mahsiga ko'z qirini tashlab.*

— *Po'shtaga ketyapman, **aylanay**, — dedi beparvolik bilan.*

— *Ha, tinchlikmi, **tasadduq?** — so'radi A'lobush.*

— *Adhamjon pul yuboribdi, — dedi Shahodat xola. — Shuni olib kelmoqchiman.*

— *Voy, **tasaddug'-ey, ey, voy, tasaddug'-ey!** Ho'-o'p bolalarimiz bor-da, **tasadduq!** — dedi A'lobush. — Sobirjonimni aytaysizmi, tunov kuni xatida, oyi, mandalinni posilka qilsam nima deysiz, deпти. Yo'q, dedim, **tasadduq**, yo'q, dedim. O'zing kiyaver, dedim. Maskopda yarashadi bunaqa kiyimlar, dedim.*

— *Mandalini nima ekan, **aylanay?** — so'radi Shahodat xola, kulgidan o'zini zo'rg'a tiyib.*

— *Nima bo'lardi, **tasadduq**, allambalo materiyal bo'lsa kerak-da!*

Shahodat xola endi o'zini tutib turolmadi. Mandarinning nimaligini aytib yuboray dedi-yu, lekin aytmadi, o'rtog'ini xafa qilgisi kelmadi. Faqat to'yib-to'yib kuldi.

— *Nega kulyapsiz, **tasadduq?** — so'radi A'lobush.*

— *Bolalarning qilgan ishiga kulmay bo'ladimi?*

— *To'g'ri aytasiz.*

A'lobush qo'shnisiga qo'shilib kuldi.

Xo'p, men boray bo'lmasa, — dedi Shahodat xola va ko'chaga chiqdi. Chiqdi-yu, quruqdan-quruq ketayotganidan tortindi. Maqtangani kirgan ekan, deb o'ylamasin tag'in A'lobush! Orqasiga qaytdi (O'. Umarbekov)

Muloqot xulqining yoshga ko'ra xoslanishi. Nutqning kommunikantlarning yoshiga ko'ra farqlanishi ham o'ziga xos lisoniy ifodalarda aks etadi, umrning turli davridagi kishilar nutqi orasida tafovut katta. Masalan, 18-25 yoshdagi kishilar bilan 30-50 va undan katta yoshdagi kishilarning nutqi anchagina farqdanadi. 18-25 yoshdagi kishilar nutqida jargon, argo, vulgarizm, olinma so'zlar tez-tez qo'llanilishining guvohi bo'lamiz.

So'zlashuv nutqidagi dialogik diskursda muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga tilga oid so'z va iboralar qo'llanishi kuzatiladi. Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday chet so'zlaridan badiiy nutqda kommunikant xarakteri, sotsial mansubligi va ichki dunyosi tasvirida hamda vokea-hodisaning xorijga xosligini ta'kidlash maksadida foydalaniladi. Shuningdek, ular matnga voqealar bo'lib o'tayotgan o'ringa ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning sotsial mansubligi haqida ma'lumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin.

Muloqotda yosh xususiyatlatni hisobga olish milliy xarakter bilan chambarchas bog'liq. O'zbek muloqot xulqiga ko'ra rahbar yoshi katta xodimlarga topshiriq berayotganda iltimos, maslahat uslubida ish tutishi tavsiya etiladi. Shuningdek, ommaviy muloqotlarda, «yoshullilanmiz yaxshi bilishadi...», «oqsoqollarning takliflarmi hisobga olib...», «tajribali xodimlanmizning yo'lidan borib...» yoki «to'g'rimi falonchi aha?!», «falonchi akamiz ma'qul ko'rsa...», «ustozlanmiz qarshi bo'lishmasa....» kabi iboralar bir tomondan rahbarning, ikkinchi tomondan butun jamoaning yoshi katta xodimlarga hurmatini ifodalasa, shu bilan birga ular rahbarni qo'llashiga zamin yaratadi. Bu holat adresantning mavqeyini yanada mustahkamlaydi.

Shu o'rinda nutqiy muloqot haqida ham ayrim fikrlarni berib o'tish lozim. Muloqot shaxslararo munosabatning shunday ko'rinishiki, uning yordamida olamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. SHuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Keyingi yillarda tilshunoslikda nutqiy muloqot tushunchasi ko'p qo'llanmoqda. Tilning voqelanishda inson omili bilan bog'liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingvistik yo'nalishning o'rganish manbaini tashkil etadi. Ma'lumki, nutqiy muloqot o'nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat dinamik sistemadir. Demak, insonning mental faoliyati bilan bog'liq ravishdagi hodisalarni tadqiq qiluvchi kulturologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri sifatidagi pragmatik tilshunoslik inson sub'ekti va ob'ektivlik (lison)ni qorishiq yaxlitlik sifatida tadqiq qiladi. Zero, nutqda sub'ektivlik va ob'ektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas, sistemaviylik yaxlitlik xossasi bilan xarakterlanadi. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sistemalar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obyektiv baho beriladi.

Muloqotga bivosita ta'sir etuvchi omillar ham xilma-xil bo'lib, ular, taxminan quyidagilar: muloqot vaqti, vaziyat, holat, ijtimoiy holat, bivosita muloqot.

O'z navbatida til birliklarining shakllanishiga ko'ra: og'zaki-yozma muloqot.

So'zlovchi va tinglovchi pozitsiyasiga ko'ra: - dialogik; monologik.

Muloqot ishtirokchilari miqdoriga ko'ra: shaxslararo-ommaviy muloqot. Muloqot shart-sharoiti va kommunikantlarining o'zaro munosabatlariga ko'ra: xususiy, norasmiy rasmiy.

Bulardan tashqari, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi aloqaning kontakt-distantligiga ko'ra ham ixtisoslashdi.

Ma'lumki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi zaruriy uzv, ya'ni tarkibiy qismlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bunda so'zlovchi adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs-tinglovchi adresat deb, kommunikant deb muloqotda bevosita ishtirok etuvchilar ko'zda tutiladilar. Nutq so'zlovchi va tinglovchilar o'rtasida bevosita, ya'ni yuzma-yuz yoki bivosita: xat, telegramma, telefon singarilar orqali amalga oshishi mumkin. Shunga ko'ra ham nutq ixtisoslashadi. O'z navbatida bevosita aloqada undovlardan, odatda, ko'proq foydalaniladi.

Nutqning yana boshqa turdagi ijtimoiy ixtisoslashuv shakllari va turlarini ham sanash mumkin. Lekin shu yuqoridagilar ham ularning turi ko'p ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu turlar o'zaro birikuvlarda, ya'ni kombinatsiyalarda cheksiz ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Umuman, sotsiolingvistik tadqiqotlarda nutqning bunday ijtimoiy ixtisoslashuvi natijasida ikkilamchi ijtimoiylashgan munosabatlar yuzaga keladi deb hisoblaydilar. Albatta, bunday fikrga qo'shilish qiyin. Haqiqatan ham so'zlovchi va tinglovchi ma'lum bir jamiyatni tashkil etadi, lekin bu jamiyat barqaror va doimiy emas. U muvaqqat, davriy va vaqtinchalikdir. Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvini bunday tushunish bilan sotsiolingvistika stilistikadan farq qiladi. Chunki stilistika, asosan, axborotni yetkazish shakli va vositalariga ko'proq e'tiborini qaratadi. O'z navbatida sotsiolingvistika lison va nutq o'rtasidagi munosabatlar turlicha talqin etib kelinayotgani hammaga ma'lum.

Mashhur tilshunos olim F.de. Sossyurning ta'limoti bilan bog'liq bo'lgan strukturalizmning turli-funksional lingvistika (Praga-tilshunosligi), glossematika

(Kopengagen tilshunosligi) va boshqa oqimlarning umumiylik shundaki, ularning barchasi nutq faoliyatini ikki bir-biriga qarama-qarshi tomonga-lison (til) va nutqqa ajratadi. Bunday farqlanish, jumladan, Sossyurning lison va nutq haqidagi quyidagi fikriga tayanadi: "Til va nutqni farqlar ekanmiz, ijtimoiy umumiylikni shaxsiy xususiylikdan, mohiyatni tasodifiy hodisalardan farqlaymiz". Bevosita nutq haqida gapirar ekan, F.de Sossyur: "Nutqda hech qanday umumiylik yo`q" yoki "Nutq alohida bir shaxsning ixtiyori va ongining mahsulidir", deb alohida ta'kidlaydi.

Strukturalizm tilni mustaqil bir sistema sifatida o`rganar ekan, lisoniy tizimni, lisoniy imkoniyatlarni o`rganishga ko`p e'tibor qaratdi va shu bois lisonshunoslik keng rivojlandi. Nutq lingvistikasi esa, lisonshunoslik soyasida qoldi va tilshunoslikning asosiy e'tibori tildagi sistemaviy paradigmatic munosabatlarning o`rganilishiga qaratilib, nutq lingvistikasiga kam e'tibor berildi.

Strukturalizmning xilma-xil oqim va maktablari keng rivojlanib, lisonshunoslik "XX asr tilshunosligi", "Zamonaviy tilshunoslik" sifatida keng ommalashgach, yangilik tarafdorlari Sossyur diqqatidan chetda qolgan sohaga - nutq lingvistikasiga ham e'tibor bera boshladilar. Natijada Sossyurning "nutq sof xususiy, individual nutqda hech qanday umumiylik yo`q" degan fikrlariga qarshi chiqdilar va hatto lison-nutqning o`zaro farqlanish, asossiz ekanini isbotlashga intildilar, ya'ni Sossyur o`z qarashlarida eng muhim deb bilgan lison va nutq farqlanishini inkor etishga intildilar. Bu inkorning ham o`ziga xos asosi mavjud edi. Bu asos shundan iborat ediki, alohida bir shaxs muloqot jarayoniga kirishar ekan (fikrini, his-tuyg`usini, munosabatini yozma yoki og`zaki shaklda bayon etar ekan, uning oldida ma'lum maqsad turadi. Bu maqsad so`zlovchining boshqalar uni tushunishi, anglashidan iboratdir. So`zlovchi va tinglovchining bir-birini tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo`lgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so`zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo`lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy, majburiy va ijtimoiydir. Ammo lisoniy tizimdayam bir xil mazmun va

munosabatni ifodalashning yuzlab omillari mavjud. Soʻzlovchi esa mana shu imkoniyatlar xazinasidan birini tanlash va qoʻllash erkinligiga ega.

Masalan, "Ayol psixologiyasi"

Eridan mamnun boʻlib turganida:

- Avaz! Avazchik! Turaqolsinlar endi! Voy oʻzimning asal bolamdan! Voy oʻzimning polvon bolamdan! "Adajonim qani?" deysizmi? Adajoningiz ishga ketdilar. Avazjon ham "ishga" boradilar. Adajonisi-chi, Avazjonga-chi, ka-a-attakon shokolad olib keladilar. Avazjon-chi, adajonisiga oʻxshagan pahlavon yigit boʻladilar.... Voy, ishtoncha yana hoʻl boʻpqopti-ku! Mayli, hozir almashtiramiz-da. Vo oʻzimning toychogʻim!

Eridan xafa boʻlib turganida:

-Avaz! Hoy, Avaz. Tur oʻrningdan yalpayib yotmay! Sening bogʻchangga men borishim kerakmi? "Adalama! Adang ishga ketdi-da, goʻrga borarmidi?! Ie ishtoning yana hoʻlmi? Siyaman, desang, oʻlasanmi, hoʻkizdek bola! Arillama! Otangdan nima rohat koʻrdim-u, sen nima karomat koʻrsatarding!"

(Oʻ.Hoshimov).

Sotsiolingvistika bizga nutqning ixtisoslashuvi turlarining barchasini masalan, bolaga (oʻquvchiga, talabaga, kichik yoshdagilarga, notanish bolaga, qarindoshning bolasiga, mehmonning bolasiga, qoʻshnining oʻziga, oʻgʻliga, qiziga, va h. qanday gapirish kerakligini, bu jarayonda tilimizning qaysi bir fonetik, leksik, grammatik, uslubiy vositalaridan foydalanish zarurligini oʻrgatmaydi va oʻrgata olmaydi, chunki bular behad koʻp va rang-barangdir. Bu imkoniyatlarni oʻzlashtirish uchun insonga, uquv, saviya, farosat, madaniyat, bilim, dunyoqarash kerak boʻladi. Bu esa oʻz navbatida insonda millat xususiyatlarini, xulq-atvorni, madaniyatini, qadriyatlarini chuqur bilish asosida shakllanadi. Sotsiolingvistika bizga yuqorida sanab oʻtilganlarning barchasiga soʻzlovchi bir xilda gapira olmasligini, ularning har biriga oʻziga xos va mos

ravishda munosabatda bo'lishi lozimligini o'rgatadi. Mana shularga amal qilgan kishigina el-yurt orasida obro' topadi, uning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, so'zlovchi va tinglovchining tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so'zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo'lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy, majburiy va ijtimoiydir. Ammo lisoniy tizimda ayni bir xil mazmun va munosabatni ifodalashning yuzlab omillari mavjuddir. O'z navbatida so'zlovchi mana shu imkoniyatlar xazinasidan birini tanlash va qo'llash erkinligiga ega.

Lison va nutq mohiyatan yaxlit butunlik bo'lgan nutq faoliyatining ikki tomonidir va ularni bir-biridan ajratish aslo mumkin emas. Ularga dialektik falsafaning, bir tomondan, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, zaruriyat, majburiyat, ikkinchi tomondan - yakkalik, xususiylik, hodisa, voqelik, oqibat, tasodif, erkinlik kabi kategoriyalari orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridagina yondashish mumkin. O'z navbatida nutqni jarayon sifatida faqat muloqot-so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs (fikir almashish), savolga yarasha javob berish holatidagina tadqiq etish mumkin.

2.2. So'zlashuvda nutqiy etiketning ifodalanishi

Jamiyat hayotidagi eng muhim aloqa vositasi, shubhasiz, tildir. Tilning inson hayotida tutgan o'rnini hech qanday vosita bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bu bebaho va beqiyos ne'matsiz insoniyat tarixini, buguni va kelajagini, ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotni tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki til inson fikrining mavjud bo'lishini ta'minlaydigan bebaho axborot tizimi hisoblanadi. Shuningdek, har bir millatning milliy o'ziga xosligi, dunyoqarashi uning ona tilisiz mavjud bo'lmaydi. Dunyodagi eng qadimiy, lug'aviy tizimi boy, ifoda imkoniyatlari keng tillardan biri bizning ona tilimiz o'zbek tilidir. Xalqimizning asrlar osha shakllangan va yashab kelayotgan qadriyatlari, boshqa millatlardan

ajratib turuvchi urf-odat va amallari, milliy mentalitetimiz ona tilimizda o'z ifodasini topadi. "Zotan, ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir". Milliy tilimiz va uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, muloqot jarayonida nutqiy odob qoidalariga amal qilish haqida asrlar osha ajdodlarimiz qimmatli fikrlarini bayon etib kelishgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida ham «Til fazilatlari, foyda va zararlari haqida», «Til ardami» deb nomlangan boblari bo'lib, ular so'zlash madaniyatiga bag'ishlangan. Asardan ayrim namunalarni keltirsak:

So'zingni ko'dazgil boshing bormasun,

Tilingni ko'dazgil tishing sinmasun...

(So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin...)

Esanlik tilasa saning bu o'zung,

Tilingda chiqarma yarog'siz so'zung.

(Sening o'zing esonlik tilasang,

Tilingdagi yarog'siz so'zingni chiqarma).

Bilib so'zlasa so'z biligka sonur,

Biligsiz so'zi o'z boshini yeyur.

(Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi,

Nodonning so'zi o'z boshini yeydi).

Bu o'rinda biz ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning nomini alohida ehtirom bilan tilga olamiz. O'z ijodi bilan so'z qudrati va notiqlik san'atini yuksak darajaga ko'targan alloma nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. U «Mahbub-ul qulub» asarining 24-bobini voizlikka (notiqlik san'atiga) bag'ishlagan «Muhokamat-ul lug'atayn» va «Majolis-un nafois» asarlari esa bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, turkiy (o'zbek)

tilining boshqa tillar orasidagi o'rnini belgilab berishga hamda nutq madaniyatini o'rganishga qaratilgan edi.

«Xamsa» ning har bir dostonida Alisher Navoiy so'zga bo'lgan ehtiromini alohida qayd qiladi. Quyida dostonlarning nasriy bayonidan ayrim parchalarni keltiramiz. «Hayratul - abror»dan:

«So'z gavharining sharafi shunchalik yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi.

So'z jon bo'lib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam unga ehtiyoj sezadi. So'z dunyoda bor barcha ko'ngillarning qutisidagi javhar, hammaning og'iz qutisidagi qimmatbaho gavhardir. Agar til bamisoli bir po'lat zanjir bo'lsa, so'z unga qadalgan injulardir. Til shu chamanning ochilgan lolasi bo'lsa, so'z durlari unga qo'ngan shabnamlardir. So'z o'lgan odamning tanasiga pok ruh bag'ishlaydi. So'zdan tandagi tirik ruh halok bo'lishi mumkin.

Yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltirib olgani uchun Iso payg'ambar o'zini «Jonbaxsh» laqab bilan atagan. So'z tufayli Xalil o'zini o'tga tashlagan. Jabroil ham so'z yukiga hammol bo'lgan. Tangri insonni sirlar xazinasiga darajasiga ko'targan ekan, uni so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgani uchun hayvonlardan ortiq qilib yaratdi.

Agar, qo'l bilan berib xayr qilish iloji bo'lmasa, til bilan ham naf yetkazish mumkin. Odamni bir og'iz yaxshi so'z bilan xursand qilish kerak bo'lgan vaqtda unga xazina bersang ham, u qaramaydi. So'z bilan el o'limdan najot topadi, so'z bilan o'lik tan qayta tiriladi. So'z bilan dinsizlar musulmon bo'ladi, so'z bilan hayvon deganing insonga aylanishi mumkin. Bir so'z bilan qancha balolar daf bo'ladi, qancha boylik sochsang ham bunday naf'ga yetishmaydi. Insonga xos konning gavhari, bu – so'zdir, odamzod gulshanining mevasi ham shu so'zdir»²⁵

²⁵ *А. Навои ў. Ҳайратул-аброр. – Тошкент, 1989. Б. 303.*

Bugungi kunda ham nutqiy odob, muloqot xulqi masalalari tilshunoslikdagi asosiy masalalardan sanaladi. Kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko'rinishlari, nutqning sotsial xoslanishi lingvistik pragmatikaning o'rganish sohasi sanaladi. Nutqiy aralashuv jarayonidagi suhbatning maqsad va yo'nalishiga ko'ra P.Grays quyidagi to'rt prinsipni ko'rsatib o'tadi: a) axborotning to'liqligi; b) axborotning sifati (to'g'ri so'zlash); v) axborot yo'nalishidan chetga chiqmaslik; g) so'zlash manerasi (aniq va qisqa)¹. Bu yo'nalishga xos ishlar o'zbek tilshunosligida ham amalga oshirilgan. Jumladan, H.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.O'rinboev, S. Mo'minovlarning (O'rinboev B., Soliev A.; Mo'minov S.) nutq madaniyati va kommunikativ xulq yo'nalishidagi ishlari, P.Grays ta'kidlaganidek, lingvistik pragmatikaning umummasalalaridan hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi lingvistik pragmatika nazariyasining to'ldirilishida muhim o'rin tutadi. Kommunikatsiya jarayoni uchun axborotning bunday belgilarining bo'lishi tabiiy, biroq nutqiy etiket ko'rinishlarining bunday ijtimoiy axloq me'yorlari lingvistik pragmatikaning nazariy jihatlariga aloqador yo'nalishlarni ochish uchun xizmat qilmaydi degan xulosaga kelmaslik zarur. Pragmatika nazariyasi nima uchun shunday? kabi savollarning asoslanishi bilan o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Jumladan, kattalarning kichiklarga munosabati minnatdorchilik tuyg'usini «*Barakallo*» so'zi bilan ifodalashi nutqiy etiket ko'rinishlaridan biridir, buni me'yoriy holat deb qaraladi. Biroq buning aksi bo'lgan holatlarda lingvistik pragmatika nazariyasif ehtiyojning tug'ilishi kuchaydi, chunki bunday hollarda «Nima uchun shunday?» tarzidagi savol ko'p tilshunoslarning diqqatini jalb qiladi. Kichiklarning kattalarga minnatdorlik tuyg'usi yoshlar nutqi uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy-performativ formulalar yordamida o'z ifodasini topmasa, bunday ifodalar lingvopragmatik izohga muhtoj bo'ladi.

Ma'lumki, til va nutq birliklarining har qanday ko'rinishi funksional qo'llanishiga ko'ra o'z o'rniga ega bo'ladi. Agar ana shu birliklar, nutq sub'ektining yoshiga ko'ra, qo'llanish o'zni hamda uslubiy chetga chiqishiga ko'ra o'zgarsa, bu jarayonda, albatta, pragmatik tahlilga ehtiyoj ortadi.

O'zbek nutqiy odati tadqiqotchisi Sh.Iskandarova uning vazifa doirasini belgilab, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish, ularning bir – birlariga iltifot ko'rsatishga harakat qilishi, suhbatni boshqarib boorish, murojaat qilish, xitob, ta'sir etish singari ommillarni qayd qiladi.

Miliy til bilan bog'liq ravishda har bir xalqda miliy muomala odobi, nutqiy etiket shakllanadi. Ma'lumki, **etiket**—bu kishilarning o'zaro munosabatiga tegishli umumiy tarzda qabul qilingan va rioya qilinishi talab etiladigan axloqiy qoidalaridir. Shunga ko'ra u muomala odobining rasmiylashgan shakli bo'lib, u har bir xalqning urf-odati, xulq-atvori bilan bevosita bog'liq odob qoidalari hisoblanadi. Nutqiy etiket so'zlashuv nutqida ham alohida ahamiyatga ega. Nutqiy etiketning ifodalanishi ayniqsa, **salomlashuv, xayrlashuv, tanishuv, minnatdorlik bildirish** nutqiy vaziyatlarida muhim. O'zbek so'zlashuv nutqida salomlashuv nutqiy vaziyatida **assalomu alaykum, yaxshimisiz, tuzukmisiz, uydagilar yurishibdimi, uy ichilar sog'mi, ishlar qalay, mazangiz yaxshimi, ishlaringiz yaxshimi** kabi so'z va birikmalardan faol qo'llansa, minnatdorlik bildirish vaziyatida **rahmat, ming rahmat, katta rahmat, barakalla, ofarin, yashang, tan—joningiz sog' bo'lsin, bola—chaqangizning rohatini ko'ring, sog' bo'ling, bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin** kabi so'z va iboralardan foydalaniladi. Bu so'z va birikmalar so'zlovchining tinglovchiga nisbatan ijobiy munosabatini, hurmatini ifodalaydi. Masalan: *Assalomu alaykum, domlajon, —dedi ta'zim qilib. —Ustoz otangdek ulug', degan gap bor. Sizdek ustozimni bir ziyorat qilgani keluvdim, domlajon.* (O'. Hoshimov) Yoki: *Qizlar o'zlarining bir turlikkina so'zlashishlari bilan Kumush ila ko'risha boshladilar:*

—Esonmisiz, sarupolar muborak!

Kumushbibining qizlarga bergan javobi eshitilar—eshitilmas edi:

—Qutlug'... (A. Qodiriy)

So'zlashuv nutqida ota—ona va farzand, ustoz va shogird, katta yoshdagi kishilar va yoshlar, turli kasb egalari (shifokor, sotuvchi, usta, sartarosh, shafyor va

hokazolar) ning o'zaro muomalasida hurmat tamoyiliga alohida e'tibor qaratiladi. Tilshunoslikda hurmat tamoyilining quyidagi qoidalari ko'rsatib o'tiladi:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlari «sarfi»ni kamaytir; uning foydasini ko'paytirishga harakat qil);

2. Himmat, olijanoblik qoidasi (o'z foydangni kamroq ko'zla, barcha «sarfi»ni o'z zimmangga ol);

3. Ma'qullash, tahsin qoidasi (o'zgalarni yomonlama, g'iybat qilma, koyima);

4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o'z-o'zingni maqtashni keskin kamaytir);

5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);

6. Xush ko'rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrihox, oqko'ngil bo'l).

Mazkur qoidalarga amal qilishda etiketning odatiy so'z va birikmalari qatorida olmoshlar, so'zlovchining tinglovchi bilan o'zaro yaqinlik darajasi, simmetrik yoki asimmetrik nutq vaziyatiga qarab turli murojaat shakllaridan foydanish, ijobiy bo'yoqdor so'zlarni qo'llash, undov so'zlarni ishlatish hamda kerakli intonatsiyada so'zlash katta ahamiyatga ega. Bu vositalarning qo'llanish miqyosi va o'rni turlicha. Til tizimida mavjud bo'lgan vositalarning tanlovi ko'pincha muloqotning nolisoniy (ekstralingvistik) xususiyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi.

O'zbek so'zlashuv nutqida **sen** olmoshi tinglovchini o'ziga yaqin olish ma'nosida qo'llansa, **siz** olmoshi hurmatni bildiradi. Masalan:

Meni sen siylasang, seni payg'ambarlar siylasin, –dedim duo qilib. –Menga sening jayam puling kerakmas. (O'. Hoshimov)

Ma'lumki, pragmalingvistikada olmoshlarning qo'llanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki olmoshlar deyktik belgi sifatida va munosabat ifodalashiga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Jumladan, **sen** olmoshining 7 xil nutqiy vaziyatda ishlatilishi va ulardan ikki turini alohida ajratib ko'rsatish kerakligini, bular:

senning kattalar tomonidan ishlatilishi (yosh ierarxiyasiga binoan yuqoridan pastga qarab, ya'ni so'zlovchi yoshi ulug', adresat esa bola). Keyingisi senning surbetlarcha, yuzsizlarcha ishlatilishi (ijtimoiy ierarxiyaga ko'ra yuqoridan quyiga qarab) A. Matkarimova tomonidan ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, nutqiy vaziyatda sendan tashqari yana siz olmoshi ham ishlatilib, bu olmosh ko'pincha murojaat etilayotgan paytda ikki shaxsni- adresat va so'zlovchini teppa-teng qamrab olishi, shu bilan birga, mazkur nutqiy vaziyatda so'zlovchining adresatga nisbatan yuqoriroq mavqeini belgilashi ham aytib o'tiladi. O'zbek so'zlashuv nutqida o'zaro hurmat, yaqin olishni bildirish uchun notanish tinglovchiga ham **opa, aka, singil, xola, tog'a, pochcha, yanga, qizim, o'g'lim** kabi qarindoshlik terminlari bilan murojaat qilish nutqiy etiket hisoblanadi. Masalan:

Tuman hokimligiga bordim. O'g'lim tengi yigit xushmuomalalik bilan kutib oldi:

–Xizmat, pochcha? –dedi.

Bildimki, bu yigit namanganlik ekan. Namanganliklar hurmat qilgan odamini “pochcha” deydi. (O'. Hoshimov)

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, just va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglashiga sabab bo'ladi.

O'zbek so'zlashuv nutqi o'zbek xalqining milliy muomala madaniyati, urf-odat va an'alarini, so'zamolligini namoyish qiluvchi manba bo'lib, pragmatik va sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim ma'lumotlarni beradi.

2.3. So'zlashuv nutqida pragmatik ma'noning ifodalanishi

Ma'lumki, leksemaning tashqi shakliy jihatining uning mohiyati uchun ahamiyatsiz bo'lib, sistem tilshunoslik leksemalarning ichki mazmuniy tomoniga asosiy e'tiborni qaratadi va xususiyliklarning umumlashmasi sifatida shakl va mazmun aloqadorligini tahlil qiladi. Bu fikr nazariy adabiyotlarda ham alohida ta'kidlanadi. Jumladan, "tashqi nutqning aniq moddiy shakli nutq vaziyati bilan, so'zlovchining maqsad va imkoniyatlari bilan belgilanadi... Sistem-tilshunoslik nomemalarga ko'p ahamiyat bermaydi. Nomemaning aniq shakli nutq sharoiti bilan belgilanadi va u leksemaning mohiyatiga ta'sir etmaydi. Leksemaning mohiyati uning ichki tomoni - semema orqali va shunga ko'ra leksemaning boshqa til birliklari bilan munosabatga, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi"²⁶. Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida shakllanayotgan psixolingvistika, kommunikativ tilshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik lingvogeografiya va uslubshunoslik sohalarini umumlashtiruvchi lingvistik pragmatika yo'nalishi, asosan, leksemaning ichki mazmuniy tomoniga e'tibor berib, uning nutqdagi pragmafunksional belgilarini tadqiq etadi. Shu jihat bilan pragmatika sistem-tilshunoslik yo'nalishi bilan uzviy bog'lanadi. Leksemaning ichki mazmuniy tarkibi lingvistik pragmatika uchun moddiy baza hisoblanadi, lingvistik pragmatika ham asosan leksema sememalari yuzasidan ish ko'radi.

So'zning ma'nolar jilosi nutqda namoyon bo'ladi. Chunki so'z imkoniyat sifatida tilda mavjud bo'lsa, faoliyat sifatida nutqda ishtirok etadi.⁶

So'z semantikasidagi pragmatic sema haqida M. Mirtojiyev quyidagi fikrlarni bildiradi: Semalar so'z sememasi tarkibida tutgan o'rni va subyekt xabari jihatidan ham tilshunoslikda mantiqan ikki tipga bo'linadi: informativ sema, pragmatik sema. Bu semalar, L.A.Kiseleva ta'biricha, eng yuqori darajadagi semalar bo'lib, eng yuqori darajadagi umumlashtiruvchi ekanliklari bilan xarakterlanadi. I n f o r m a t i v sema sememaning denotatni bildiruvchi va u haqdagi

²⁶ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Ўқитувчи. Тошкент, 1995. Б. 55.

⁶ Қаранг: А.Нурмонов. Ўша асар. Андижон, 1992 йил

munosabatlarni bildiruvchi uzvi hisoblanadi, ya'ni informativ sema sememaning denotatni bildiruvchi uzvi bilan egalik va makon, shuningdek, muayyan turkumga xoslikni bildiruvchi uzvlarini o'z ichiga oladi. Demak, semalar so'z sememasi tarkibida tutgan o'rni va subyekt xabari nuqtayi nazaridan mantiqan informativ sema va pragmatik semalarga bo'linadi. Informativ sema o'z ichiga nomlovchi sema va relyativ semalarni oladi. Pragmatik sema tarkibida esa ham emotsional, ham ekspressiv semalar bor. Emotsional sema subyektning obyektga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etsa, ekspressiv sema semema ifodasini yo kuchaytirib, yo ozaytirib ko'rsatadi.²⁷ Masalan, so'zlashuv nutqida faol qo'llanuvchi *tuzuk, binoyi, binoyiday, nozanday, poshshaxon, qoyilmaqom, tag'in, ketvorgan, barvasta* kabi so'zlar ijobiy emotsional munosabatni ifodalasa, so'zlashuv nutqiga xos boshqa so'z va iboralardan farqlanadigan, biroq ba'zan salbiy munosabatni bildiruvchi so'zlar, masalan: *surbet, muttaham; ahmoq, noinsof, mechkay, naynov, so'tak, bachchag'ar, boytevat, xomkalla, iblis, juvonmarg, go'rso'xta, zumrasha, xumpar, yashamagur, lavang, tirrancha* kabilarda denotatga nisbatan norozilik, mensimaslik, nafrat kabi ottenkalar sezilib turadi.

So'zlashuv uslubida ijobiy yoki salbiy emotsional munosabat bildiruvchi pragmatic semaga ega leksemalar talaygina. Jumladan, dag'al so'z va iboralarni qo'llanish doirasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar. Bunday so'z va iboralarda, so'zlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati kuchlidir: *buzuq, xumpar, xomkalla, noinsof, sotqin, majmag'il, ammamning buzog'i, bir pul, kekirdagini cho'zmoq, ko'ngliga urmoq, mazasi yo'q* kabi. Masalan, *eshigimga oyoq qo'ysin-chi, buzuk* (A. Muxtor); - *O'lguday lattachaynar, majmag'il odam ekansan-da!* (H. G'ulom); - *SHuncha imo qilsam ham tushunmaysan, a n q o v* (Tuyg'un); *Bu ishga' sen*

²⁷ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.-Тошкент, 2008.

aralashma. Kampir mazasi yo`q ayol* (Said Ahmad);-*Muncha serrayasan, yigitmisan, ammamning buzog`imisan?! (Yu.Shomansur).

Keltirilgan misollardagi *buzuq* so`zi axloqiy nosozlik, razil, chaqimchi ma`nosida, *majmag`il so`zi* betayin, lanj ma`nosida, *anqov* so`zi bo`sh, lapashang ma`nosida; *mazasi yo`q* iborasi fe`l-atvori bo`lmag`ur, yomon ma`nosida, *ammamning buzog`i* iborasi landavur, lapashang, bo`sh ma`nosida qo`llanilgandir;

b) kishilarning tashqi kamchiligini ko`rsatuvchi vulgarizmlar. Bunday so`z va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, o`xshatish natijasida paydo bo`ladi. Chunonchi, *mechkay, ko`ppak, qarg`a, so`tak, ayronbosh, gumbaz, qovoqbosh, kal, so`loqmon, quti uchdi, bir oyog`i erda bo`lsa, bir oyog`i go`rda* kabi. Masalan: -*Mahallaga sir berib qo`yibsan-da, ayron bosh* (“SHarq yulduzi”)

v) so`kish-koyish bilan -bog`liq bo`lgan vulgarizmlar. Bunday so`z va iboralarda suhbatdoshlarning ichki hayajoni, ruhiy holati, g`azabi kuchli bo`ladi: *xoin, sotqin, vijdotsiz, ablah, iblis, isqirt, la`nati, benomus, iflos; esi og`moq (telbalanmoq), og`zi katta (kibr-havoli), nazari ilmaydi (mensimaslik)* kabi. Masalan:—*Qoch vijdotsiz! Yo`qol, iflos! Yuviqsiz!—dedi Muqaddam qichqirib* (O`.Hoshimov); *Qoratoymirzakarimboyning Gulnorga uylanmoqchi bo`lganligini eshitgach, jahli chiqib bunday dedi:- “Ha, noinsof, ha ko`ppak, iflos qarg`a!”* (Oybek); *Bilsang, seni nazarimga ham ilmas edim.Sen bilan birga yurgani odamlardan uyalarдим* (Said Ahmad);-*U kishi ilgari “Men Qamishkapaning ustuniman” deb chirangan og`zi kattalardan* (P.Tursun)

Masalan, o`zbek so`zlashuv nutqida qo`llaniluvchi **jigar** so`zi (to`g`ri ma`noda inson, hayvon organizmining bir turi) umumnutqqa xoslangan so`z bo`lib, ko`chma ma`noda “yaqin o`rtoq”, “do`st”, “jo`ra”, “yaqin qarindosh”, “haqiqiy o`zbek” kabi ma`nolarida oddiy so`zlashuv nutqiga xoslangan birlikdir.

So`zlashuv uslubining o`ziga xos leksik xususiyatlaridan biri unda ijobiy yoki salbiy bo`yoqdor so`zlarning keng qo`llanishi, subektiv munosabatni ifodalashga alohida e`tibor qaratilishidir. Ma`lumki, ma`nodosh so`zlar til lug`at

tarkibida muhim o'rin tutuvchi birliklardan, tilning ifoda imkoniyatlari kengligini ko'rsatuvchi vositalardan sanaladi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi birliklarning qo'llanishida uslubiy xoslanish kuzatiladi. Masalan, tilimizda “**yig'lamoq**” ma'nosini ifodalovchi bir qator so'zlar mavjud. Bulardan **obidiyda qilmoq** so'zi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, salbiy munosabatni ifodalaydi. Masalan: Bir mahal eshikka yaqinroq joyda xotin kishi **hiqilladi**:

— Ochilim, bolaginam...

Bashor opaning zardali tovushi jimjit zalda qattiq yangradi:

— O'g'lingiz ish ko'rsatganiga suyunish o'rniga **obidiyda qilasiz-a**, Lazakat xola!(O'. Hoshimov)

Kiyim, libos, ust-bosh, engil-bosh, engil, egin sinonimik qatoridan **libos** so'zi kitobiy uslubga xos, **kiyim** – uslubiy neytral, **engil-bosh, engil, egin, ust-bosh** so'zlari so'zlashuv nutqiga xos. Masalan: Yetti tilloning qo'ldan chiqish xabari Nigor oyimning qulog'iga yetishgach, Anvardan ranjidi: «Hamma pulingni domlangga chakki beribsan, Anvar; **ust-boshingni**, ko'rpa-yostig'ingni, ortib qolsa Ra'no ukangning ustini tuzatishing kerak edi. Domlang tuflab tugishdan boshqani koshki bilsa!»— dedi.(A. Qodiriy)

Ko'nmoq, rozi bo'lmoq, unamoq leksemalari ham sinonimik qatorni tashkil etadi. **Unamoq** leksemasi so'zlashuv nutqiga xos. Mulla Ikrom qiyiq odam bo'lganidanmi yoki kasbi shuni taqozo qilganidanmi murosaga **unamadi** (Oybek).

So'zlashuv uslubida ayollar nutqida o'ziga xos erkalash ifodalovchi birliklar faol qo'llanadi. So'zlashuv nutqida shunday fe'llar borki, o'zining tub ma'nosidan yiroqlashgan holda, faqat ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qiladi, faqat pragmatik funktsiya bajaradi. **Tushkur, tushmagur, qurgur, qurmagur, quling o'rgilsin, xarom o'lgur, aylanay, o'rgilay kabi. Masalan:** — **O'rgilay** ovsinjon! CHolim o'lgir yomon ish qildi. SHokirim bilan Zokirim urushga ketamiz degan ekan, xovliqma deb yo'lga solish o'rniga o'zi yetaklab

voenkomatga oboribdi. Hech kimga aytmay jo'natib keldi. Bolalarim bilan rozi-rizolik ham tilasholmay qoldim. Ovsinjon!

Oyim uni yupatishga urindi. — Nafasingizni issiq qiling **aylanay**. Yurtga kelgan to'y, mana Kimsanim ham ketdi-ku! O'tiribman yaratganga topshirib...(O'. Hoshimov) Yoki: - **Voy, amming aylansin! Voy, amming o'rgilsin sendan!** (O'. Hoshimov)

Qurgur // qurmagur so'zi birikma tarkibida qo'llanib norozilik ma'nosini hosil etadi²⁸: Bundan tashqari, *mosh qurg'ur*, bilmadim, qaysi toshloqda bitgan ekanki, hadeganda ochila bermadi. (G'. G'ulom) Yigit **qurg'ur** sezib qoldi, poylab turib shartta bilagimdan ushladi—da, ma'shuqasiga qaradi. (G'. G'ulom)

So'zlashuv nutqida iboralar faol qo'llanadi. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat- holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari hisoblanadi. Masalan: Niyatingiz yaxshiku, **holva degan bilan og'iz chuchimaydi-da, o'rtoq Xo'jayip** (O'. Hoshimov). **Chuchvarani xom sanabsan**, Oqsoqol! (O'. Hoshimov).

So'z sememasidagi konnotativ sema ham pragmatikada alohida ahamiyatga ega. Jumladan, so'zlashuvda keng qo'llanuvchi *jigar, asal, shakar, bo'taloq, qo'zichoq* kabi so'zlar konnotativ ma'nosi bilan denotatga nisbatan ijobiy munosabatni ifodalaydi va pragmatic funktsiya bajaradi. Bular konnotativ ma'no bo'lganligi uchun ifoda semalari tarkibiga kiritiladi. Chunki "ifoda" so'zining lug'aviy ma'nosida har qanday sotsial kontekst mazmunini anglash mumkin. Ifoda semalari ham leksema paradigmasidan aniqlanuvchi semalar qatoriga kiritilib, bular pragmatikaning fundamental asosi hisoblanadi. Bu ifoda semasiga xos uslubiy bo'yoq, munosabat maonolari bilan pragmatik maydonda umumlashadi. So'zlashuv uslubida o'zining barcha uslubistik bo'yog'i bilan ajralib turadigan lug'aviy birliklar so'zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ularda soddalik, ta'sirchanlik, erkinlik, vaziyatboblik sezilib turadi.

²⁸ Хамидов З. Ғафур Ғулом прозаси лексикаси.— Тошкент, 2003, 47–б.

Soʻzlashuv uslubiga xoslangan oddiy muomalaga oid soʻzlarga quyidagilarni kiritish mumkin: tuzuk, binoyiday, nozaninday, avliyo, poshaxon, bijildoq, kelishgan, xushqomat, almoyi-aljoyi, avom, vojib, gardun, gumbaz, xoʻjayin, doʻndirmoq, minnat, mirquruq, naynov, xoin, savil, tepsa tebranmas, karmon koʻtarmaydi, gumonasi bor, dumbul odam va boshqalar.

Nutqda shaxslarni atash, ularga murojaat qilish, ularni taʼriflash, chaqirishda maʼlum tartib va qoidalar mavjud. Soʻzlashuv uslubining xarakterli xususiyatlaridan biri keltirilgan qonun va qoidalardan chetga chiqish hollarining mavjudligidir.

Leksema sememasining tuzilishiga koʻra turli darajadagi maʼno nozikliklari nutqdagi pragmasemantik vazifasiga koʻra uch guruhga ajratiladi: betaraf (neytral), uslubiy boʻyoqdor va nutq vaziyati bilan aloqador ishora vazifasini bajaruvchi shaklan leksema, mazmunan esa ichi boʻsh soʻzlar: bu, shu, u, oʻsha, hamma, yaʼni mazmuni kishilar xotirasidagi tushunchalar bilan bogʻlanmaydigan soʻzlardir.

Leksema sememasining tarkibiy qismlarida neytral, uslubiy boʻyoqdorlik va ularning nutqdagi qoʻllanish vazifasiga koʻra his-hayajon belgilarining (leksema sememasiga xos his-hayajon semantikasi) mavjud yoki mavjud emasligi bilan lingvistik pragmatikaning zahirasi sanaladi. Bularning barchasi nutqdagi funksional qoʻllanishda soʻzlovchining munosabatini ifodalash vazifasiga koʻra emotsional va neytral pragmatik maydonga umumlashadi.

Barcha nutq turlarida soʻzning pragmatic funksiyasi koʻchimlar vositasida yuzaga chiqishi mumkin. Ayniqsa, soʻz maʼnosining koʻchishi hodisasi soʻzlashuv nutqi uchun xarakterli hodisa boʻlib, u tasvirlanayotgan voqea-hodisani individuallashtirish, baholashda qoʻl keladi. Soʻzlashuv uslubida maʼnoning barqaror koʻchishi natijasida jonli obrazlilik saqlanadi. Soʻzlashuv uslubidagi koʻchma maʼnoli soʻzlar adabiy tildagi maʼno xususiyatlariga nisbatan alohida obrazlilikka va ekspressivlikka egaligi bilan ajralib turadi. Subyektning obyektga munosabatini ifodalovchi sema konnotativ maʼno, deb qaraladi. Konnotativ maʼnoning ham ikki muchasi mavjud. Birinchi mucha grammatik maʼno, ikkinchi

mucha subyektiv munosabat. Pragmatik ma'no o'ziga oid bo'lgan leksemani qo'llovchi xalq ruhiyatini aks ettirib turadi. Shunday ekan, u leksik ma'noning milliyligini ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib qoladi. O'zbek tilida nutqiy protsessda metafora hosil bo'lar ekan, bu hodisa hosila sememada pragmatik sema hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, sher, burgut, qashqir, lochin, ohu leksemalarining shaxs bildiruvchi semema, charos, la'l, bodom, gul leksemalarining kishi a'zosini bildiruvchi semema hosil qilishi metafora bo'lib, mazkur hosila sememalarda pragmatik sema yuzaga keladi. Hosila semema tarkibida pragmatik semaning yuzaga kelishi metafora hodisasi bilan emas, balki uning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi o'xshatish konstruktsiyasini tuzish maqsadi bilan bog'liqdir. O'xshatish konstruktsiyasini tuzish maqsadi esa pragmatikani, ya'ni denotatga nisbatan sub'yektiv munosabatni yuzaga chiqaradi. Metaforaning o'zi o'xshatish konstruktsiyasining etalonida qolgan komponentlarning nutq imkoniyatiga ko'ra implitsit ifodalanishidir.

Masalan: *buruqsamoq* (nojo'ya gaplar gapirmoq), *diydiyo* (dard-hasrat), *dastmoya* (ro'kach), *bedavo* (juda xunuk), *bez* (surbet), *bulamiq*, (chalkash narsa), *alvasti* (badbashara), *artist* (yuksak mahoratga ega bo'lgan odam), *yog'li* (yaxshi daromad beradigan), *vovullamoq*, (o'shqirmoq), *jo'n* (oddiy, sodda), *jo'ja* (farzand), *jin* (kishining ta'bi), *jaydari* (sodda, dulvor), *maqom* (yo'l), muz (yoqimsiz narsa, odam), *nasiya* (berilmaydigan, qilinmaydigan), *mol* (qo'pol, tarbiyasiz odam), *mixday* (joyida), *merosxo'r* (davom ettiruvchi), *lab-daxan* (gapirish qobiliyati), *quyuq* (dard-g'am), *kaptarxona* (kirdi-chiqdi ko'p bo'ladigan joy), *kambag'al* (ayanchli ahvolga tushib qolgan kishi), *karmon* (pul), *ovlamok* (tovlamok, aldamoq), *oyoq-qo'l* (dastyor, ko'makchi) kabilar. Keltirilgan misollarimizda so'zlar adabiy tildagi ma'nolaridan tashqari so'zlashuv nutqida boshqa ma'nolarga ega ekanligi bilan farqlanadi: *Sattorqul akang uyni tuzattirib bermokchi. Mayli o'shanda tokcha jiniga yoqmasa suvatib tashlay qolsin.* (A.Qahhor). - *Senga kim qo'yibdi bunday gaplarni! -deb vovullab berdi* (P.Tursun). *Suhbat muz bo'lib ketdi. Mehmonlar ichkilikka zo'r berishdi* (S. Ahmad).

Insonning kognitiv qobiliyatini ro'yobga chiqarishda, muloqot jarayoni/matnning kommunikativ va pragmatik strukturasini to'g'ri va maqsadli shakllantirish yoki uning emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirishda nutqni jonlantirishga, unga faoliyat, harakatlilik tusini beruvchi vositalar (jonli muloqot nutqi birliklari, ekstralingvistik omillar, modal so'zlar, yuklamalar, har xil kiritmalar va h.) g'oyat muhim o'rin tutadi. Tilimizning ijtimoiy vazifalari kengayib borishi bilan bunday vositalarning miqdori kundan kun ko'payib, chegarasi muntazam kengayib bormoqda. Milliy istiqlol sharofati bilan O'zbekiston Respublikasining rasmiy davlat tili o'zbek tili bo'lib, madaniyat, iqtisod, siyosat, baynalmilal aloqalarning barcha turlarida tilimiz keng amaliyotda bo'layotganligi va uning faoliyat doirasi kundan-kunga kengayayotganligi bilan birga nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalar, jumladan, modal so'zlar va yuklamalarning yangi-yangi turlari shakllanmoqda. Bu jarayonni nafaqat bizning tilimiz, balki milliy istiqlolga erishish tufayli mustaqil taraqqiyot va baynalmilal aloqaga kirishgan har bir til boshdan kechirgan. SHuning uchun ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo tilshunoslarining e'tiborini tortgan qiziqarli masalalardan biri - kommunikatsiya jarayonida faol ishtirok etuvchi «diskursiv markerlar»ning – yuqorida sanab o'tilgan «nutqni jonlantiruvchi» vositalarning - jadal rivojlanishi va safining kengayib borayotganligi bo'ldi.

Pragmatik tilshunoslikda «diskursiv marker» tushunchasi mavjud. Diskursiv marker deganda shaklan so'z yoki so'z birikmasi, hatto gap tuzilishiga ega bo'lib, shu diskursda / matnda o'z denotativ (va propozitsion) informativ qiymatini yo'qotib, eng avvalo, matnni jonlantirish, uni harakatdagi jarayon sifatida berish, shu bilan birga, uning butunligini ta'minlash, turli xildagi sub'ektiv emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirish, adresantning individual uslubi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladigan hosilalar tushuniladi. Diskursiv markerlar matnda harakatchanlik bo'yog'ini berish bilan birga ifodalanayotgan matn va diskursning o'tgan qismi orasidagi munosabatlar haqida xabar beradi (ya'ni, matn aloqadorligini ta'minlaydi) hamda kommunikatsiya paytida so'zlovchi va

adresatning o'zaro munosabatini, so'zlovchi ichki (ruhiy) holatini ta'sirchan shaklda aks ettiradi.

Xorij tilshunoslari diskursiv markerlar sirasiga yuklamalar, bog'lovchilar, modal so'zlar, undovlar, ravishlar kabi ko'plab morfologik-sintaktik birliklarni kiritishadi. Yuqorida eslatib o'tilgan sabablarga ko'ra, bunday birliklarning soni tez ko'payib boryotganligi ularning o'rganilishiga bag'ishlanib ko'plab ishlarning yuzaga keltirgan²⁹. Bu ishlarda diskursiv markerlarning ko'rinishlari, so'z turkumlariga mansubligi, shakllanish va rivojlanish yo'llari haqida ham bahs boradi.

Diskursiv markerlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning ta'sir doirasi, odatda, gap yoki mikromatn chegarasidan chiqadi, katta kontekstlar bilan hatto metamatn – matndan tashqarida turgan holatu vaziyatlar, so'zlovchining zotiy (ontologik) xislatlari, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei, madaniy saviyasi, bayon etilayotgan fikr va muloqot jarayoniga munosabati, muloqot jarayonining boshqa turdagi xilma-xil tarkibiy qismlarining xususiyatlari bilan ham aloqador bo'loladi. Diskursiv markerlarni rus tilida³⁰ va ingliz tilida³¹ qo'llanilishi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar bunday birliklarning matnni va diskurs (muloqot jarayonini) shakllantirish kabi struktur vazifa bilan birga har xil emotsional-ekspressiv ta'sirchanlik xususiyatlariga, so'zlovchi ontologik xislatlari va muloqot jarayonidagi ruhiy holatini aks ettirish qobiliyatiga ega ekanligini alohida uqtirishadi.

O'zbek tilida ham nutq jarayonida faol ishtirok etib, turli-tuman pragmatik vazifalar - eng avvalo, matnni jonlantirish va butunlashtirish, har xil konnotativ

²⁹ Баранов А.Н., Плугян В.А., Рахилина Е.В. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. - М., 1993; Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. – М., 1998.

³⁰ Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. – М., 1998.

³¹ Трауготт Э.С. Сонструсионс ин грамматисализатион // Тхе хандбоок оф хисторисал лингустисс / эд. Бй Б.Д. Жозепх, Р.Д.Жанда. Охфорд: Бласквелл, 2003. п.643.

ma'nolar ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy hosilalar (so'z, so'z birikmalari, gap qurilishi) juda ko'p. Ularning qaysi so'z turkumi (modal so'zlarmi yoki undovlarmi, yuklamalarmi yoki bog'lovchilarmi) tarkibiga kiritish har xil munozaralarga sabab bo'ladi, zeroki, ular bir xususiyati bilan modal so'zlarga o'xshasa, boshqa qirrasini bilan undovlarga yaqinlashadi. Biz shunday so'zlarni **«diskursiv yuklamalar»** atamasi ostida birlashtirdik. Bizningcha, o'zbek tilidagi diskursiv yuklamalar sirasiga quyidagi hosilalarni kiritishimiz mumkin: *bale, bu, zab, hali, labbay, mayli, mana, ana, tuzuk, e, qani endi, qani, ishqilib, aytmogchi, nega desang, baribir, o'lgur, qurgur, qurmagur, tushgur, tushmagur, bo'lgani bo'ldi, aytgin-aytgin, boringki, qo'yingki, kel, kelib-kelib, deyman, bu deyman, degin, shunday deng, yaxshisi, kimsan, bilasizmi, bormi, shunday, endi, savil, ha, bo'пти, xo'sh, xudo xohlasa, aytmaysizmi* kabilar. Bu qatorni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bu so'zlar, yuqorida aytib o'tganimizdek, olmosh, modal, undov, yuklamalar tarkibiga yoki so'z turkumlari tizimida ajratilishi mutlaqo asossiz bo'lgan kiritmalar sifatida baholanadi. Mazkur diskursiv yuklamalar so'zlashuv nutqida pragmatic ma'no ifodalash uchun xizmat qilladi. Masalan:

2.4. So'zlashuv nutqi frazeologizmlarining sotsiopragmatik xususiyatlari

So'zlashuv nutqi yozma nutqqa qaraganda ta'sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so'z qo'llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda so'zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi. U nutqiga hissiyotini ham qo'shib gapiradi, bunda turli imo-ishoralar, qo'l va tana a'zolari harakatlaridan foydalaniladi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo'lgan so'z va iboralarning o'rnini to'ldiradi hamda bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. So'zlashuv uslubi uchun nutqning dialogik shaklda bo'lishi, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, mazkur uslubga xos bo'lgan har xil takrorlar, intonatsion vositalar (gumon, ishonch, piching, qat'iylik, hazil) ning ko'proq bo'lishi, so'zlovchi his-tuyg'ularidan, munosabatidan kelib chiqadigan emotsional-ekspressivlikning mavjudligi, nutqiy muloqotga xos situatsiya (vaziyatlik), yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko'proq bo'lishi, haqorat, erkalov, kichrayturuv, oddiy

muomalaga oid so'zlarning ko'proq bo'lishidir. Uslubiy bo'yog'i bilan ajralib turadigan lug'aviy birliklar so'zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ularda soddalik, ta'sirchanlik, erkinlik, vaziyatboplik sezilib turadi.

Tilning asosiy funksiyalaridan biri ekspressivlikni ifodalash so'zlashuv nutqida alohida ahamiyatga ega. Chunki so'zlashuv nutqi jonli nutq bo'lib, so'zlovchi va tinglovchi munosabati muhim o'rin egallaydi. So'zlashuv nutqida tilning pragmatik xususiyatlari to'la namoyon bo'ladi. Pragmatika tilning nutqiy vaziyatlar bilan bog'liq xususiyati bo'lib, nutq sub'ekti, nutq ob'ekti tushunchalari muhim o'rin egallaydi. Nutq ob'ektining ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini so'zlovchi munosabati bilan uyg'unlikda ta'sirli ifodalashda, so'zlashuv nutqida emotsional-ekspressivlikni oshirishda frazeologizmlarning alohida o'rni bor. O'zbek tilining boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. Sh.Rahmatullayev asos solgan o'zbek frazeologizmshunosligi keyingi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Turli hajmdagi ilmiy maqolalar, risolalar, nomzodlik dissertasiyalari bilan bir qatorda A.E.Mamatovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari» (1991), B.Yo'ldoshevning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari» (1994), A.Mamatovning «O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari» (2000) nomli doktorlik ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Sh.Rahmatullayev tomonidan 1978 yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» esa hozirgacha muhim qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Iboralar tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik³² bo'lib, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda ularning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Tilshunos olim Mamatov fikricha, iboralar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg'un so'z birikmalarini o'z

³² Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т.: “Фан”, 2002, 1246

ichiga oladi.³³ Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.³⁴ Umuman olganda, frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng va va murakkabligi bilan ajralib turadi. So'z ma'nosida bo'lmagan, uchramagan komponentlar ko'p frazeologizmlar ma'nosida mavjud bo'ladi.³⁵

SHakl va mazmun birligidan iborat bo'lgan frazeologizmlar lisoniy birlik sifatida uch yo'nalishida o'rganiladi:

- a) struktur jihatdan (frazeologik birlikning qurilish xususiyatlari);
- b) semantik jihatdan (frazeologik birlikning lug'aviy ma'nosi);
- v) funktsional jihatdan (frazeologik birlikning lison va nutq strukturasi da tutgan o'rni).

Frazeologizmlar tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizmlar: ko'ngli bo'sh, enkantinkasini chiqarmoq, jig'iga tegmoq, bel bog'lamoq, kir izlamoq, terisiga sig'may ketmoq va h. Gap tipidagi frazeologizmlar «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsulidir: *istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko'ngli ochiq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po'konidan yel o'tmagan, tepa sochi tikka bo'lmoq* va h.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmlarning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: dardisar, toshbag'ir, boshog'riq kabi. Demak, leksemalar hosil bo'lish manbalaridan biri sifatida frazeologizmlarni qayd etish mumkin.

Frazeologizmlar, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. SHuning uchun ularning aksariyati grammatik jihatdan belgi va harakat bildiruvchi so'z turkumlariga mansub.

³³ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. ДДА. – Т.: 1999й, 116

³⁴ Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоетик таҳлилли асослари. Т.: “Фан”, 2006, 53 б

³⁵ Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлилли. Филол.фанлари номзоди... дисс.автореф. – Т., 2009, 176

Harakat ifodalovchi frazeologizmlar: *me'dasiga tegmoq, yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq.*

Belgi ifodalovchi frazeologizmlar: *ko'ngli bo'sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuq.*

Harakatning holatini ifodalovchi frazeologizmlar: *ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha.*

Frazeologizmlarning ayrimlari gap tipida bo'ladi: *turgan gap, shunga qaramay, katta gap kabi.*

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning tabiati va hosil bo'lish usullari, frazeologik ma'no tabiati, frazeologik omonimiya, sinonimiya, antonimiya, variantdoshlik kabi hodisalar, frazeologik birliklarning morfologik strukturasi va paradigmaticasi, gap tarkibidagi vazifasi, badiiy va publitsistik uslub frazeologiyasi kabi masalalar tahlil qilib kelinmoqda. Frazeologizmlarning antropotsentrizm nuqtai nazaridan yondashish, bunday birliklarning pragmatik funktsiyalari va nutqiy muloqot jarayonidagi ahamiyatini yoritish ham dolzarb masalalardan sanaladi.

Frazeologizmlarning asosiy qismi shaxsga xos xarakter–xususiyat, harakat, holatni ifodalashga xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy hayotning, nutqiy muloqotning markazida inson va ular o'rtasidagi munosabatlar turadi. SHuning uchun ham o'zbek tilidagi frazeologizmlarning aksariyat qismini tana a'zolarini ifodalovchi leksemalar bilan shakllangan iboralar tashkil etadi. Masalan, o'zbek so'zlashuv nutqida **qo'l** leksemasi bilan shakllangan quyidagi frazeologizmlar bor: *qo'li ochiq, qo'l kelmoq, qo'lidan kelmoq, qo'l urmoq, qo'li egri, qo'li uzun, qo'li qisqa, qo'l ostida, qo'li baland kelmoq, qo'l uchida, qo'l siltamoq, qo'lni yuvib qo'ltiqqa urmoq, oyog'ini qo'lga olib, qo'lini sovuq suvga urmaydi, besh qo'lini og'ziga tiqmoq, qo'lni qo'lga bermoq kabi. Og'iz leksemasi bilan shakllangan og'iz solmoq, og'zi qulog'ida, og'zi katta, og'iz–burun o'pishmoq, qo'y og'zidan*

cho'p olmagan, ona suti og'zidan ketmagan, og'zi oshga yetganda, og'ziga talqon solmoq, og'zida qatiq ivitmoq, bir og'iz, og'zi bo'sh, og'zi mahkam, og'zi qattiq kabi. Bosh leksemasi bilan shakllangan quyidagi frazeologizmlar bor: *boshi ko'kka yetmoq, bosh ko'tarmoq, bosh egmoq, boshiga ko'tarmoq, boshini yemoq, boshiga yetmoq, boshiga chiqmoq, bir yostiqa bosh qo'ymoq, boshida yong'oq chaqmoq, ishi boshidan oshmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, bosh qashimoq, boshiga bitgan balo, biror ishning boshini ushlamoq, boshini qovushtirmoq, bosh qotirmoq, boshini qotirmoq, boshini bog'lamoq, boshini silamoq, boshini tikmoq* kabi.

Bundan tashqari, inson tana a'zolarini ifodalovchi **bet, ko'z, quloq, burun, qovoq, yurak, oyoq** leksemalari asosida shakllangan bir qator frazeologizmlar mavjud. Bunday frazeologizmlarning aksariyati shaxsga xos holat va harakatlarni ifodalagani uchun Sh. G'anieva ularni "personallik" semasiga ega frazeologizmlar sifatida qayd etadi.

Inson tana a'zolarini ifodalovchi leksemalar asosida shakllangan frazeologizmlarni leksik–semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ruhiy holatni ifodalovchi frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlarning aksariyati **dil, qalb, jon, og'iz, bosh** kabi leksemalar ishtirokida hosil bo'lgan. Masalan: *og'zining tanobi qochgan, og'zi qulog'ida, boshi ko'kka yetmoq, dili siyoh, ko'ngli g'ash* kabi.

2. Xarakter–xususiyat ifodalovchi frazeologizmlar: *og'zi bo'sh, og'zi mahkam, og'zi qattiq (iqtisodiy munosabatlar jarayonida), qo'y og'zidan cho'p olmagan* kabi.

3. Ijtimoiy–iqtisodiy holat ifodalovchi frazeologizmlar: *qo'li uzun, qo'li qisqa, biror ishning boshini ushlamoq* kabi.

4. Shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi frazeologizmlar:

a) ijobiy munosabat ifodalovchi frazeologizmlar: *og'iz–burun o'pishmoq, boshiga ko'tarmoq, bosh egmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, qo'lni qo'lga bermoq* kabi.

b) salbiy munosabat ifodalovchi frazeologizmlar: *boshiga yetmoq, boshiga chiqmoq, oyoq osti qilmoq, yuziga oyoq qo'ymoq, yuz o'girmoq, qo'lni yuvib qo'ltiqqa urmoq, beti qattiq* kabi.

Frazeologizmlarning pragmatik funktsiyalari quyidagilarda ko'rinadi:

1. So'zlovchining tinglovchiga ijobiy yoki salbiy munosabatini ta'sirli ifodalash.

–*Og'zingga talqon solganmisan, nimaga indamaysan?*

–*Og'zimni ochsam baloga qolyapmanu!* (So'zlashuvdan)

Yoki:

Luqmonov beti qattiqroq odam edi. Uni hozirgina minbardan sharmanadalarcha tushirib yuborishdi. Profsoyuz lideri bilan tayyorlash ministri sha'niga juda xunuk, hatto og'izga olib bo'lmaydigan gapni minbardan turib baralla aytganida zalda to'polon bo'lib ketdi. (“Jimjitlik”, 10b) yoki *Luqmonovga gap kor qilmasdi. U beti qotib ketgan odam edi. Oqsoqolning bu gaplari uning yuziga tushgan achchiq tarsaki edi. Bu gapning unga mutlaqo aloqasi yo'qdek u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketgan edi.* (“Jimjitlik”, 12b) Sh. Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” da bet bilan bog'liq somatik frazemalar ichida yuqoridagi ikki iborani uchratmaymiz. Bu ikki ibora ma'nosi *beti chidamoq* frazemasining ifoda semasiga tengdir. Beti chidamoq iborasi nomus qilmaslik, uyalmaslik, andisha qilmaslik kabi ma'nolarda qo'llaniladi.³⁶

2. So'zlovchining nutq obyektiga munosabatini ta'sirchan ifodalash.

3. Nutqning uslubiy bo'yoqdorligini oshirish.

So'zlashuv nutqi frazeologizmlari o'zining obrazlilik, ta'sirchanligi, hamma uchun tushunarlilik va jonlilik bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, frazeologizmlar ma'noni kuchli, obrazli, emotsional-ekspressiv ifodalovchi til birligidir, shu sababli ulardagi konnotatsiyani anglash uchun frazeologizm ma'nosini unga ma'nodosh so'z semantikasi bilan qiyoslash zarur. Masalan, quvonchi ichiga sig'maydi

³⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т.: “Ўқитувчи”, 1978, 376

frazeologizmi xursand so'zi bilan ma'nodosh sanaladi. Frazeologizmdagi konnotatsiya faqat xursandchilikni ifoda etuvchi ma'nonigina bildirib qolmasdan, shu bilan birga, xursandchilining yuksak darajada sodir bo'lganligini ham anglatadi. Bu frazeologizmning semantic tarkibida konnotatsiyaning emotsionallik va ekspressivlikdan tashqari baholov komponenti ham mavjudligini sezish mumkin. Chunki sodir bo'lgan voqea-hodisaga so'zlovchining yoki tinglovchining ijobiy munosabatini ham bildiradi. So'zlashuv nutqi uslubidagi frazeologizmlarni konnotativ va polisemantik ma'nolariga ko'ra tasniflash lozim bo'ladi.

So'zlashuv nutqi uslubiga xos baholash munosabatini ifodalovchi frazeologizmda soddalik, ta'sirchanlik, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, erkinlik sezilib turadi. Masalan; *almisoqdan qolgan, daqyonusdan qolgan* frazeologizmlari juda eski, qadimgi ma'nolarida so'zlashuv uslubiga xosdir. Chunki har bir frazeologizm biror predmet yoki hodisaning nomini atash bilan birga ijobiy va salbiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Frazeologizmlarni baholash munosabatiga asosan ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Ijobiy ma'no munosabatini ifodalovchi frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlarda so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan ijobiy muomalasi, so'zlovchining zavq-shavqi ifodalanadi. Masalan, *baxti kulgan, og'zi qulog'ida, baxti ochiq, terisiga sig'maydi* iboralar so'zlashuv nutqi uslubida **shodlik, baxtlilik**, xursandchilik tushunchalarini ifodalash xizmat qiladi.

2. Salbiy ma'no munosabatini ifodalovchi frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlarda suhbatdoshning tinglovchiga nisbatan kinoyasi, dag'alligi, kamsitishi, kesatishi, nafrati, so'kish, koyishi, qarg'ishi kabi salbiy munosabati o'z ifodasini topadi. *Tepsa tebranmas, ammamning buzog'i, ko'zi och* kabi belgi ifodalovchi frazemalar shular jumlasidandir.

Baholov munosabatining ifodalanishi frazeologizmlarning pragmatic xususiyatlari bilan bog'liq. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat- holatlarni baholash, turmush

tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.

Chuchvarani xom sanabsan, Oqsoqol! (O'. Hoshimov). Mazkur gapda qo'llangan frazeologizmning denotative ma'nosi *biror narsani noto'g'ri rejalashtirmoq bo'lib*, nutqda qo'llanganda *bekor aytmoq* semasiga qo'shimcha emotsional salbiy munosabat pragmatic semasi qo'shiladi.

Motor tovushi gurillab *quloqni qomatga keltirdi* (O'. Hoshimov) Quloqni qomatga keltirmoq iborasi ham so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, qattiq ovoz chiqarmoq semasiga qo'shimcha pragmatic semaga ega. Asabiga tegmoq, salbiy emotsional munosabat semalari pragmatic ma'noni tashkil etadi.

4. Opasini chaqirib berguncha odamni **qon qilib yubordi** (O'. Hoshimov) **Qon qilib yubordi iborasi ham yaqqol pragmatic semaga ega.** Chunki mazkur iborada ham **salbiy munosabat, holi-joniga qo'ymay, qistalang qilib, sabrsizlik qilib asabiga tegish** ma'nolari bor. Jonidan to'ydirmoq iborasida ham shunga yaqin pragmatic sema bor: Uy masalasida anavi sprapkani olguncha ham **jonimdan to'ydirdi.** (O'. Hoshimov)

M.Vafoyeva fikricha frazeologik birliklar uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan til birligi bo'lib, obrazli tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qo'llanadi va uni boyituvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi, ular matnda ifodalanayotgan emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni kuchaytiradi, ifoda etilayotgan tushunchaga aniqlik kiritadi.³⁷

Shunday qilib, tilimizning boyligi hisoblanmish frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari keng bo'lib, nutqning ta'sir kuchini yanada orttiradi.

Bob bo'yicha xulosa

Ikkinchi bob yakunida quyidagi xulosalarga keldik:

³⁷ Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол.фанлари номзоди...дисс.автореф. – Т., 2009, 216

1. Bugungi kunda ham nutqiy odob, muloqot xulqi masalalari tilshunoslikdagi asosiy masalalardan sanaladi. Kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko'rinishlari, nutqning sotsial xoslanishi lingvistik pragmatikaning o'rganish sohasi sanaladi. Nutqiy aralashuv jarayonidagi suhbatning maqsad va yo'nalishiga ko'ra axborotning to'liqligi, axborotning sifati, axborot yo'nalishidan chetga chiqmaslik va so'zlash manerasi tamoyillari asosiy o'rin egallaydi.

2. Miliy til bilan bog'liq ravishda har bir xalqda miliy muomala odobi, nutqiy etiket shakllanadi. Ma'lumki, **etiket**—bu kishilarning o'zaro munosabatiga tegishli umumiy tarzda qabul qilingan va rioya qilinishi talab etiladigan axloqiy qoidalaridir. Shunga ko'ra u muomala odobining rasmiylashgan shakli bo'lib, u har bir xalqning urf-odati, xulq-atvori bilan bevosita bog'liq odob qoidalari hisoblanadi. Nutqiy etiket so'zlashuv nutqida ham alohida ahamiyatga ega.

3. Semalar so'z sememasi tarkibida tutgan o'rni va subyekt xabari nuqtayi nazaridan mantiqan informativ sema va pragmatik semalarga bo'linadi. Informativ sema o'z ichiga nomlovchi sema va relyativ semalarni oladi. Pragmatik sema tarkibida esa ham emotsional, ham ekspressiv semalar bor. Emotsional sema subyektning obyektga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etsa, ekspressiv sema semema ifodasini yo kuchaytirib, yo ozaytirib ko'rsatadi.

4. So'zlashuv nutqida pragmatic ma'noning ifodalanishi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, so'zlaning konnotativ ma'noda qo'llanishi, so'zning emotsional bo'yog'i, diskursiv yuklamalar, frazeologizmlar bu omillar ichida ajralib turadi.

5. Nutqning ijtimoiy xoslanishi masalasi sotsiolingvistika va pragmatika sohalarining umumiy masalalaridan bo'lib, muloqot ishtirokchilarining yoshi, jinsi, dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei bu jarayonda muhim sanaladi.

3-bob. So'zlashuv nutqida noverbal vositalarning qo'llanishi

3.1. So'zlashuv nutqida ekstralingvistik faktorlar

Uzatilayotgan axborot tilning muayyan qonun-qoidalari asosida shakllangani (intralingvistika) uning matn talablariga javob berishini bildiradi axborotning adresant tomonidan adresatga uzatilishida kommunikantlarning o'zaro munosabatlari (ekstralingvistika) katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Diskursda shaxs o'zining tabiiy nutqiy va nonutqiy muloqotga kirishishi bilan, ijodiy tafakkuri va muayyan holatni yaratishi bilan, o'zigagina xos bo'lgan temperamenti, kommunikativ aktdagi faoliyati bilan, hissiy jarayonlarni boshidan kechirishi bilan individuallik kasb etadi. Bu esa diskursni yaratuvchi, uning rang-barangligini ta'minlovchi asosiy o'zak **lisoniy subekt - shaxs** ekanidan dalolat beradi.

Pragmalingvistikaning lisoniy tadqiqot maydoniga dadil chiqishining sababi ham shaxs faoliyatining kommunikant sifatida barcha qirralarini o'rganish, aloqa- aralashuvda ahamiyatli bo'lgan barcha vosita, usul va uslublarni kommunikativ aktning tashkil etuvchisi sifatida tadqiq etishdan iboratdir. Kommunikativ aktda ishtirok etuvchilar - shaxslarning tiplari, ularning psixologik, sotsiologik, milliy, mantiqiy, etik, etnolingvistik, mental xususiyatlarini aniqlash va shu asnoda lisoniy shaxs tipologiyasini o'rganish ichki va tashqi lingvistikaning mushtarak holda kommunikatsiyaga xizmat qilishini anglatadi. Bu esa nuqtiiy akt, nutq uslubi, nutqiy taktika va strategiya, nutqiy situatsiya, kommunikantlar o'rtasidagi hamkorlik (hurmat, mulozamat, e'zoz; kinoya, e'tiborsizlik, mensimaslik...), noverbal va supersegment vositalar kabi masalalarni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ekstralingvistik vositalar deganda, bevosita lisoniy birliklarga aloqador bo'lmagan barcha vositalar tushuniladi. Jumladan, matn, nutq sharoiti, tinglovchi va so'zlovchi saviyasi, nutq jarayonida ularning xatti-harakatlari, qolaversa, nutq maqsadi - barchasi ekstralingvistik, lisoniy birliklardan tashqari vositalardir.

Paralingvistika grekcha soʻzdan olingan boʻlib "para"-yonida, lingvistika-tilshunoslik demakdir. Paralingvistika fanda ikki xil ma'noda ifodalanadi.

1. Lisoniy (verbal) vositalar bilan hamrohlikda ishlatiluvchi nolisoniy (noverbal) vositalarni oʻrganuvchi tilshunoslikning bir boʻlimi.

2. Nutqda, oʻzaro muloqot jarayonida ishlatiluvchi nolisoniy vositalar umumlashmasi.

Paralingvistik vositalar ekstralingvistik hodisalarning bir turi boʻlib, nutq jarayonida lisoniy birliklarga hamroh boʻladigan xatti-harakatlar hisoblanadi. Masalan: ***Mehmon oʻtirgan xonaga madaniyatli kishining kirib, salom berish holatini kuzatadigan boʻlsak, eshikdan qaddini sal eggan, qadamlarini mayda tashlagan holda, oʻng qoʻlini chap koʻkragi ustiga qoʻyib, boshini sal egib, yengilgina taʼzim bilan "Assalomu alaykum" deydi.*** Bu yerda tasvirlangan har bir holat muloqot uchun ahamiyatli, qoʻlni qorin ustiga qoʻyish, baland koʻtarish yoki chap koʻkrak usti va oʻng koʻkrak usti (osti) yoki ikki qoʻlini koʻksiga qoʻyishning har biri muloqot jarayoni bilan bogʻliq. Ularning barchasida, albatta, "Assalomu alaykum!" uning oʻziga xos talaffuz ohangi lisoniy, lingvistik vosita, qolgan barcha xatti-harakatlar, tana, qoʻl harakatlari paralingvistik vositalardir.

Masalan: - Salomalaykum, xola. - A-lekum, bolam! - Opa qoʻlini yengi ichiga tortib, yigit bilan koʻrishdi va uyga qarab: - Rasul – deb qoʻydi-da, Eshquvvatdan gina qildi (SH.Xolmirzayev).

- Assalomu alaykum, xonim, - dedi odob bilan. - Ziyoratlar qabul! Yaxshi keldingizmi? (Oʻ. Hoshimov).

- Assalomu alaykum, domla! - dedi Tursunboy yangicha shiddat bilan oʻzini gʻoz tutib. - Nima yana burga tepdimi?! (Oʻ. Hoshimov).

Imo-ishora, mimika, badan harakatlari, ovozdagi turli holatlar kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qoʻshimcha vositalar sanaladi va ular uzatish, mazmunan toʻldirish, aniqlik kiritish vazifalarni bajaradi. Kishi jonli soʻzlashuv

nutqida ma'lumotni qisqa va lo'nda ifodalashga, fikrning emotsionalligi va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan noverbal vositalardan foydalanadi. O'zbekona aloqa – aralashuvda, ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qo'l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-pastligi, cho'ziq, to'xtatib talaffuz qilish orqali ham ma'lum ma'no ifoda etiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, noverbal vositalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari turlichadir. Ular qo'l, yelka, lab, ko'z, qosh, gavda, bosh harakatlari orqali ifodalanadi.

So'zlovchi ham, tinglovchi ham o'z nutqini va tinglash jarayonini paralingvistik vositalar-turli xil harakatlar, imo-ishoralar bilan birga olib boradi. Hatto kitob o'qiyotganda ham tinglovchi, ya'ni kitobxon goh qoshlarini chimiradi, goh jilmayib qo'yadi, gohida yuzida ajablanganlik belgilari sezilib turadi, gohi yig'laydi. Bularning barchasi paralingvistik vositalaridir.

Paralingvizmlardan foydalanishda milliy o'ziga xoslik ham e'tiborga olinganini eslatib o'tish maqsadga muvofiq. Negaki aloqa-aralashuv jarayonida ishlatilgan imo-ishoralar kommunikanlar uchun tushunarsiz bo'lsa, kommunikaniv akt sodir bo'lmaydi. SHuningdek, turli madaniyat vakillari tomonidan noverbal vositalar, etiket (adab) shakllari turlicha bo'lib, ular aloqa-aralashuv jarayonida farqlanib turadi. Birgina salomlashuv jarayonining turli xalqlarda turlicha shaklda amalga oshirishini kuzatish fikrimizni tasliqlaydi.

O'zbeklarda quyidagi qo'l harakatlari inkor ifodalashi mumkin:

1) O'ng qo'l kafti oldinga ochilgan va tepaga ko'tarilgan holatda oldin chap tomonga, so'ngra o'ng tomonga gorizontal ravishda silkitilib, qo'l yana o'rta kelganda to'xtaydi. Bu harakat ko'p ma'noli bo'lib, bir umumiy inkor ma'nosi bilan birlikni hosil qiladi. Quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin:

1. Ma'lum harakatni yuzaga chiqarish inkori:

a) gapirish harakatining inkori – “aytma” vazifasida;

b) kelish harakatining inkori – “kelma” vazifasida;

v) tegish harakatining inkori – “tegma” vazifasida va boshqalar.

2. Mavjudlikning inkori – “yo’q” vazifasida.

Bu harakatning birinchi ma’nolari buyurish, ikkinchisi esa darak berish vazifalarini bajaradi. Birinchi ma’nosi fikr predmeti bilan so’zlovchi orasiga to’siq, chegara qo’yish tasvirini ifodalovchi harakatdan, ikkinchi ma’nosi fikr predmeti bilan ob’yekt o’rtasiga chegara qo’yishni tasvirlovchi harakatdan kelib chiqqan bo’lishi kerak. Inkorning bunday kinetik vositasi faqat o’zbeklardagina emas, balki jahonning juda ko’p xalqlari orasida tarqalgan.¹⁴

2) O’ng qo’l kafti suhbatdosh tomonga ochilgan holatida tirsakdan pastki qismi (bilak qismi) tepaga bir marta ko’tariladi. Bu harakat suhbatdoshning harakatini to’xtatish uchun ishlatiladi, Harakatni davom ettirish inkor qilinadi. Verbal vositalardagi bo’lishsiz fe’lli inkor gaplarning kompensasiyasi bo’lib keladi, Ba’zan mazkur imo-ishora bilan birga, “bas qil”, “etar”, “to’xta” kabi verbal vositalar ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: *Ixtiyorsiz oldinga intildi-yu, bir nima demoqqa choelandi, lekin maxdum o’ng qo’lini ko’tardi. - Bas! - dedi u.* (M.Ismoilij)

Bu harakat harakatning davom etishiga to’siq qo’yishni tasvirlovchi imo-ishoradan kelib chiqqan bo’lishi kerak.

3) Ikki bilak ikki yonga qarab ochiladi. Bu harakat dialogda so’roq gaplardan so’ngishlatilib, so’ralayotgan narsadan o’zining xabardorligi inkor qilinadi. Boshning elka tomon silkinishi yoki elkaning bosh tomonga ko’tarilish harakati bilan ma’nodoshdir. Bu harakat “bilmayman” so’zining muqobili bo’lib, verbal jihatdan “qulochini yozdi” birikmasi orqali tavsiflanadi. Masalan:

¹⁴ Якобсон Р.О. Да и нет в мимике // Язык и человек. - М., 1970. - С.288.

Usmonov har holda shubhasi borligini ko'rsatib, qulochini yozdi.

(Sh.Rashidov)

4) Bilakning tikka holatidan pastga bir marta silkitilishi so'zlovchining suhbatdoshining fikriga qo'shilmaganini yoki ma'lum bir harakatni bajarish bekor qilinganini ifodalaydi. Masalan:

- To'ram, uzr, bilmasdan aytdi, kechiring. Hokim picha qahr-lanib turdi, keyin qo'lini siltab yasovulni qaytardi. (M.Ismoilov)

Hammadan ko'p singlisidan xafa bo'lib, qo'lini siltab turib ketdi.

(Sh.Rashidov)

5) Lablar cho'chchaytirilib, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'i bilan lab uchiga tekkiziladi. Bu harakat suhbatdoshning nutq harakatini inkor qilish uchun ishlatiladi. Ba'zan mazkur imo-ishoradan so'ng "jim", "gapirma", "churq etma" kabi verbal vositalar ham ishlatiladi. Masalan:

Ochil buva mo'ylovining bir uchi bilan kulib, labiga barmoq bosdi: «jim». (A.Muxtor)

Bu imo-ishora og'iz ochmaslik tasvirini ifodalashdan kelib chiqqan bo'lishi kerak.

O'zbeklarda qo'l olishish yoki o'ng qo'lni ko'krakka qo'yish va boshni xiyol o'ng tomonga egishi, ruslarda bosh kiyimini olish, o'pishish, tizzani bukib cho'kkalash, ayollarning o'ng qo'lining ust qismini o'pish, hindlarda ikki qo'l barmoqlarini juftlab jag'ga tenglashtirish, engashib oyoqqa sajda qilish, ...

Hozir garchi etiket (adab) shakllari bo'lsa-da, muayyan harakatlar axborot uzatilgani sababli aloqa-aralashuvda noverbal vosita sifatida ahamiyatli sanaladi.

-Azizjonni aytayapsizmi?

-Voy bechoraa-a! YOshgina ediya!

-Qachon?

Birinchi bo‘lib qorovul tog‘a o‘zini bosib oldi. «Xudo rahmat qilsin», deb yuziga fotiha tortdi. (O‘.Hoshimov. So‘qqabosh bevagina. T., SHarq. 2008. 184-bet.)

Aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi paralingvizmlarning turli xalqlar madaniyatida turlicha bo‘lishi tabiiy sanaladi. Negaki, adab qoidalari, ayrim imo-ishoralar, urf-odat va an‘analar o‘sha xalqning milliy qadriyati sanaladi. Garchi lisoniy aloqa-aralashuvda turli til sohiblari muayyan til birliklaridan foydalangan bo‘lsalar va bu shaklda bir-birlarini tushunsalar ham, aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi noverbal vositalar ko‘p tillar uchun bir xil kinetik holatni taqozo etadi.

Lekin har bir xalq uchun o‘ziga xos bo‘lgan nolisoniy vositalar ham borki, ular milliy xarakterdagi noverbal vositalar jumlasiga kiradi.

Paralingvistik vositalardan foydalanish fikrni suhbatdoshga etkazishdan tashqari adresant tomonidan adresatni boshqarib ham boradi.

Insonning doimiy ravishdagi mashg‘uloti uning jismiga, ruhiyatiga, demakki, muloqot xulqiga ham, albatta, ta’sir etadi. Shuning uchun ham har bir kasb egasining o‘z lug‘at boyligi, o‘ziga xos so‘zlash uslubi bo‘ladi.

Bundan tashqari, muloqot xulqi bevosita yosh bilan bog‘liq jihatlari bilan ham xoslanadi. O‘smirlarning gapirishi, tahsin aytishi, tanbeh berishi, uydirma to‘qishi, gap ohanggi aql-hushini yig‘ib olgan odamlarga yoqmaydi. Chunki ular baland ovozda, boz ustiga, bo‘g‘iq va noaniq ohangda, xuddi minoraning ichida turgan odamga o‘xshab, bo‘shliqqa qarab gapiradilar. Qolaversa, o‘smirlarning aksariyat o‘y-fikrlari o‘zlarining hayotiy tajribalaridan kelib chiqmaydi, balki yon-atrofidagi o‘y-fikrlari gap-so‘zlarning, tahsinu-tanbehlarning aks-sadolari yoki nusxasi bo‘ladi, xolos.

Keksalik, qarilik chog'ida tovushda halimlik, yumshoq, ayrim hollarda esa dag'allik, nordonlik, kinoya paydo bo'ladi. Qanday bo'lishidan qat'i nazar, umuman, o'zbeklar tabiatida kamtarlik va kamsuqumlik, andisha va mulohazakorlik, qolaversa, inson ko'nglini har narsadan ustun qo'yishlik mavjuddir.

Nutqda noverbal vositalarning qo'llanishi shaharlik ziyolilarga nisbatan qishloqda yashovchi kishilar nutqida o'z aksini yaqqolroq topadi.

So'zlovchi tinglovchining holatini, nutq jarayoniga munosabatini uning ayrim xatti-harakatlaridan, yuzidan biladi. Adresantning jonli xatti-harakatlari, paralingvistik vositalari: ovoz tempi, qosh chimirishi, qo'l harakati, yuz ifodasi va hokazolar tinglovchi diqqatini o'ziga tortishi, adresantni zerikishdan saqlashga xizmat qiladi. Biroq paralingvistik vositalarning me'yordan ortiqchaligi ham zararli, chunki me'yordan ko'p xatti-harakatlar, imo-ishoralar tinglovchi diqqatini chalg'itadi, uni tinglovchiga emas, balki tomoshabinga aylantirib qo'yadi. Nutq o'z maqsadiga erishmaydi. Shuning uchun adresant (xususan, so'zlovchi, ya'ni ma'ruzachi) o'z nutqi mavzusi, uning tayanch tushunchalari, algoritmi haqida o'ylaganda "ijro payti"dagi paralingvistik vositalarini ham o'ylab ko'rishi lozim. Suxandonlarning nutqida, san'atkorlarning nutqida ... boshqa shu kabilarning chiqishlarida ovoz tempi, o'quv tezligi, qo'l yoki bosh harakatlari, tana holati kabi paralingvistik vositalar nutq mazmuni, maqsadi, tinglovchi saviyasi va holati bilan muvofiqlashtiriladi.

Shuning uchun paralingvistik vositalar nutqni jonlantiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida inobatga olinishi, o'rganilishi zarur. Tabiiyki, inson muloqot jarayonida o'zini qurshab turgan olam haqida axborot beribgina qolmay, balki predmetning tinglovchiga yoki o'zining xabar qilinayotgan predmetga bo'lgan munosabatini ifodalashga moyillik ham bildiradi.

Munosabat ifodalashning verbal, noverbal va aralash vositalari ham mavjuddir.

3.2. Noverbal vositalarning gender xususiyatlari

Boshqa millat vakillarida bo'lgani kabi o'zbek erkak va ayol kommunikantlari uchun xos bo'lmagan noverbal vositalar mavjuddir.

O'zbek erkak kommunikantlari uchun xos bo'lmagan noverbal xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qosh uchirib, chimirib gapirish;
- noz qilishni ifodalovchi ko'z suzish;
- sababsiz og'izni to'sib gapirish;
- hayronlik, bexabarlik, mensimaslik ma'nosida lab burish;
- achinish ma'nosida tilni tishlab, boshni qimirlatish;
- o'pishib (ayniqsa, erkaklar bilan) ko'rishish;
- jimjiloqni labga tekizib, uyalib yerga qarash;
- ko'rsatkich barmoqni iyakka qo'yib o'y surish, so'rashish;
- suhbat jarayonida o'ng yoki chap tomonga bir siltanib qayrilib boshni xiyol pastga egib suhbatdoshidan arazlash, salbiy munosabat bildirish;
- kommunikant bilan o'ta yaqin, 50-60 santimetrdan yaqin masofada turib so'zlashish;
- tez-tez mayda qadam bilan kelib ko'rishish;
- suhbat jarayonida ikki oyoqni bir tomonga juftlab bukib o'tirish.

O'zbek ayollari uchun ham kommunikantlarga xos bo'lmagan noverbal vositalar mavjud bo'lib, quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kommunikantning yuziga bir boqib turib tinglash;
- qo'lni arra (paxsa) qilib gapirish;

- ikkala qo`lni ham belga qo`yib gapirish;
- qo`lni "chars" etkazib, urib, siltab mahkam qisib, tortib ... so`rashish;
- ichkilik ichishga ishora ma'nosida tomoqqa chertish;
- bosh barmoqni orqaga qayirib "men" ma'nosida qo`lni ko`kragiga tomon ishora qilish;
- muhabbat izhori ma'nosida "do`st" deb ko`kragiga urish;
- suhbat davomida oyoqni chalkashtirib yoki chordona qurib o`tirish;
- katta-katta qadamlar tashlab peshvoz chiqish.

Juda qadimdan o`zini adresatdan yuqori tutishga harakat qilgan adresantlar undan balandroq yoki o`zlarini viqorli ko`rsatib gapirishi (masalan, mitinglarda notiqlar biron narsaning ustiga chiqib so`zlasa), aksincha, quyi tabaqadagilar pastroq pozitsiyani (holatni) egallashga harakat qilganlar. O`zlarini podsholardan har jihatdan quyi ekanligini ko`rsatish maqsadida egilib, hatto bir cho`kib salomlashganlar.

Bu sohada, ayniqsa, musulmon olamida ayollar o`zlarini erkaklar oldida mushtipar, ojiza qilib ko`rsatishga odatlanganlar. Din ham shunga da'vat etgan. Bu holatning namoz o`qishdagi holatda o`z aksini topganligini kuzatish mumkin, ya'ni namoz o`qish jarayonidagi harakat va holatlardan qo`l, oyoq, gavdalari erkaklarnikiga nisbatan quyi holatda tutilishi ma'lum. Ya'ni erkaklar takbir paytida qo`llarini bosh barmoqlar quloq yumshog'iga yetgunga qadar ko`tarsalar, ayollar barmoq uchlarini yelkalariga baravar holatda ko'taradilar, ayollar barmoq uchlarini yelkalariga baravar holatda ko'taradilar, ruknda erkaklar tizza va tirsaklarini tik tutsalar, ayollar erkaklarga nisbatan ozroq egilib, tizzalarini bir oz bo`kib turadilar, sajda orasidagi o'tirishlarda erkaklar oyoqlar ustiga o'tirsalar, ayollar yerga utiradilar.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha erkaklar tomonidan eshittirilgan farmonlar ancha ta'sirchan hisoblanadi. Shunga qaramasdan, Angliyadagi avia-transport sistemalaridagi komputer tovushlari faqat ayol ovozi bilan berilar ekan. Buning sababi erkaklar tang holatlarda ayollar ovoziga tez reaksiya qilar emish. Germaniya va Buyuk Britaniyaning bir guruh olimlari ayollar miyasidagi nutq markazining hajmi erkaklardagiga nisbatan kattaroq, tovush bosqichlari esa ularda kuchliroq va mayinroq ekanligini isbotlashdi. Olimlar ayollardagi bu sirning kalitini uzoq tarixiy o'tmishdan qidirmoq lozim deb hisoblashmoqdalar. Gap shundaki, o'sha qadim zamonlarda erkaklar ko'p vaqt uy-joylaridan olisda bo'lishgan, ayollar esa farzandlari qurshovida aksari yolg'iz qolishgan. Bu sharoitda ayollar uchun qattiq ovoz nihoyatda zarur edi: zamon o'zgardi, sharoit o'zgardi ammo ayol ovozi hamon o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Shunga qaramasdan, bugungi kunda ham o'zbek oilalarida onalarnikiga ko'ra otalarning ovozi ko'proq ta'sir etishi kuzatilmoqda. Mustaqillik davriga kelib, bozor iqtisodiyotining ta'siri bo'lsa kerak, ba'zi hollarda ayolning ovozi balandroq, ta'sirchan ekanligi sezilmoqda. Masalan, - *Necha marta aytaman, Umid qiz bolalar bilan o'ynamasin, deb! Bu-o'g'il bo'lsa...* - *Malikaxon tahdid bilan Toshpo'latga qaradi.* - *Hoy, mo'ylov! Bolaga qarasang o'lasanmi? Uch yuz dollarni bekorga olayapsanmi, to'nka!*

- *Uzr, bekam!* - dedi Toshpo'lat yerga qarab. - *Ikkinchi takrorlanmaydi!*

- *Agar shu bolaning bir joyi tirnalsa, mo'ylovingni uzib qo'lingga tutqazaman, tushundingmi? Toshpo'lat "xo'p bo'ladi, bekam, xo'p bo'ladi", deganicha orqasiga tisarilib, zinadan tushib ketdi. ... Malikaxon baland keldi:*

- *Erkak kishiga balo bormi ayollarning ishiga aralashib, a? ...Malikaxon qo'l siltadi.* - *Ikki xonali "xrushyovka" siga to'rtta tovuq kirsa, nafasi qaytib uchtasi o'lib qolar-u, naqdlab qo'yibdimi sizga?! Pensiyasi bir kun kechiksa pochtaxonaning eshigiga borib poylab o'tiradigan otangiz so'lag'mondek qilib boqsinmi, sizni?! Keng uyning kuyovchasi bo'lib o'tirganingizga shukr qilsangiz-chi, boyvachcha! (O'.Hoshimov)*

To`g`ri, onalarning ovozi ko`proq ta'sir etishiga boshqa sabablarning ham borligini unutmasligimiz lozim. Zero, hayot tajribalarining ko`rsatishicha, ovoz ohanglarining farqiga, ayniqsa, bolalar ko`proq yetadilar. Ular erta tongda "turaqoling, o`g`lim (qizim)" degan jumlaning buyruq, taklif, iltimos, yolvorish, yalinish yoki boshqa ohangda aytilishiga qarab munosabat bildiradilar.

Ko`ngilchan va muloyimligi bilan ajralib turadigan o`zbek ayollari ko`pincha yuqoridagi jummalarni bolalarini uyqudan uyg`otish uchun uch-to`rt marta, ba'zan bundan ham ko`proq takrorlashga majbur bo`ladilar. Shunga ham farzandlarini o`rnidan qo`zg`ata olmagan onalar oila boshlig`iga murojaat qilishga majbur bo`ladilar. Chunki aksariyat o`zbek oilalarida otaning so`zi onanikidan ko`proq ta'sir etadi. Shu sababdan bo`lsa kerakki, aksariyat hollarda onalar "otangga aytaman", deb bolalarini qo`rqitadilar. O`zbek nutqida "otaning so`zi o`q" deb bejiz aytilmagan. Zero, onasining "turaqoling, o`g`lon" deb erkalashlariga quloq solmagan bolalar otalarining sharpalarini sezishi bilanoq o`rinlaridan turib ketadilar. Buni otaning qattiqqo`lligidan tashqari, ovozidagi o`ktamlik, qat'iylikning, keskirlikning natijasi deb bilmoq kerak.

Musulmonchilik udumiga ko`ra ayollar nomahramga yuzini ko`rsatish tugul hatto ovozlarini ham eshittirishlari mumkin bo`lmagan. Shu sababdan ayollar namozni ham ancha mayin, muloyim, ingichka va past ovozda o`qisalar, erkaklar esa dag`alroq, baland, yug`on ovozda bimalol tortinmasdan gapiradilar.

Masalan, *Oxiri mening oilamni "elchi" qilib yuborishdi, shekilli, ayolim uch-to`rt qadam narida to`xtab, ehtiyotkorona domlaga emas, menga murojaat qildi:*

-Mehmonlar ketamiz deyishyapti adasi, nima qilaylik? Xuddi shu payt raqibi ot surib "shoh" - dedi. Ozod aka shaxt bilan boshini ko`tarib, menga chaqchaydi:

-Xotiningiz muncha ko`p gapiradi-a, boshqa xotin olsangiz bo`lmaydimi?!

(O`.Hoshimov).

Ba'zan, erkaklar orasida ingichka, muloyim ovozda gapiradigani yoki ayollarning qo'pol, yo'g'on ovozda gapiradiganlari ham uchrab turadi. Bunday kishilarning biri ayollarga, ikkinchisi esa, aksincha, erkaklarga o'xshatiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, musulmon olamida muqaddas kitob sanalmish "Qur'oni karim"da, Payg'ambarimiz hadisi -shariflariyu, jahonda mashhur allomalarning asarlarida ham ayollarning o'rne, onalarning qadr-qimmatini nihoyatda yuksak baholangan.

Noverbal vositalarni qo'llashning turlari xilma-xildir. Masalan, Yevropa ayollari qishda erkaklar bilan qo'lqoplarini yechmasdan, bosh kiyimlarini olmasdan so'rashishadi. Erkaklar esa, albatta, qo'lqoplarini yechib, bosh kiyimlarini olib so'rashadilar. Qadimdan, ayniqsa, islom dini ta'sirida iffat va hayo ruhida tarbiya topgan musulmon ayollari qator noverbal xatti-harakatlari, jumladan, so'zlashayotgan paytda kommunikantlar, ayniqsa, nomahramlar yuziga boqib gapirmaslik va tinglamasliklari bilan alohida ajralib turadilar.

Masalan:

- *Yo`q, - deb yana kulimsiradi Kumush, - bir-ikki kundan beri siz aytadiringan...*

- *Nima men aytadiringan?*

- *Azur... deb qizarindi Kumush, - ko`nglim aynar edi, deb aytar edingiz-u...*

Oftob oyimning ham yuzida bir kulimsirash kurishdi.

- *To`g`rimi?*

- *Bilmadim...- dedi, yerga qarab qizardi, - o`tgan kundan beri ko`nglim aynagandek bo`ladi... Ayniqsa, palov isidan ko`nglim ketadi... Achchiq narsalar yegim keladi...*

- *Muborak bo`lsin, - dedi Oftob oyim, kuldi. Kumush ijirg`anib o`zicha alla-narsa so`zlandi. Oftob oyim engashib Kumushning qulog`iga shivirlandi: bu sirni boshqa hech kimga bildirma, qaynonang ham yengil xotin, ayniqsa, kundoshing seza ko`rmasin. Kumush ma'qul ishorasini berdi;*

Xoji o`z qo`li bilan sochlarini tuzatib Kumushning ko`kintir tovlangan yuzini kurdi va manglayini bosdi...

- Oyim... oyim...!- dedi Xoji. Kumush ko`zini ochib besaronjom unga nazar tashladi va tanib... qo`zg`almoqchi bo`ldi...

- Qo`zg`almang, oyim qo`zg`almang! Kumushning ko`z yoshi chakkasidan oqib tushdi... Xoji ham o`zini to`xtatolmay, Kumushning yoshini artib, boshini siladi.

- Xudo shifo berar, bolam!

Kumush jomga qo`zg`aldi, Otabek kelib qo`ltiqldi, Xoji ham uning boshini tutdi... Bu gal qusuq qonqa aylangan edi, burnidan ham bir-necha tomchi qon oqdi... Qusib yotgach, ko`zi yarqillab ochilib ketdi va tevaragiga betoqat qarandi...

- Oyi... dada... - so`ngra, - begim, - deb ingrandi... Erining yuzini yuziga qo`yib, uyalgansimon ko`zini yumdi... (A.Qodiriy).

Ushbu paytda Yusufbek Hoji, O`zbek oyim ham shu yerda edi. Sharmhayoli, sharqona odob egasi bo`lgan Kumush kuchli zahar ta'siridan o`zini yo`qotayozgan, ichi o`t bo`lib yonayotgan paytda ham qaynota, qaynona huzurida erining yuzini - yuziga qo`ygani uchun "uyalgansimon" bo`lib ko`zini yumdi.

Bob bo'yicha xulosa

Uchichi bob yakunida quyidagi xulosalarga keldik:

So`zlashuv nutqida ekstralingvistik faktorlar alohida ahamiyatga ega. Ekstralingvistik faktorlar qatoriga nutqiy muloqotda til birlilariga qo'shimcha tarzda qo'llanuvchi noverbal vositalar, imo-ishoralar, gavda harakatlari kiradi. Bu vositalar paralingvistika sohasida o'rganiladi. Lekin bu vositalarda so'zlovchining yosh, jins, milliy o'ziga xoslik xususiyatlarining aks etishi, bunday vositalarning ham ijtimoiy xoslanishi sotsiolingvistikaning obyekti sanalsa, bunday vositalarda nutqiy odob, qo'shimcha pragmatic ma'nolarning ifodalanishi pragmlingvistika uchun ahamiyatlidir.

Umumiy xulosalar

“O‘zbek so‘zlashuv nutqining sotsiopragmatik tadqiqi” mavzuidagi magistrlik dissertatsiyamiz yakunida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Keyingi yillarda tilshunoslikning tadqiq doirasi yanada kengayib bormoqda. Zamonaviy ilm-fandagi fanlar integratsiyasi tilshunoslikka ham yangi ufqlarni ochmoqda. Antroposentrik paradigmaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ham aynan shu jarayonlar bilan bog‘liq.

2. Muloqot jarayoni juda murakkab jarayon bo‘lib, unda nutq ishtirokchilarining dunyoqarashi, madaniy saviyasi, ruhiyati va muloqotdan ko‘zlagan maqsadi o‘z ifodasini topadi. Chunki nutqiy muloqotdan maqsad faqat axborot almashish emas, balki tinglovchiga muayyan voqea-hodisa haqida shaxsiy munosabat bildirish, tinglovchida o‘z fikrini uyg‘otishdir.

3. Tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘lib, . bu yo‘nalishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e‘tiborini shaxsga qaratdi.

4. Jahon tilshunosligida til tizimini shaxs bilan bog‘liq tarzda o‘rganish asosan lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda namoyon bo‘lmoqda.

5. Sotsiolingvistika va pragmalingvistika o‘zaro aloqadorlikdagi sohalar bo‘lib, har ikki sohaning umumiy jihatlari nutqiy vaziyat, muloqot xulqi, nutqiy odob kabi masalalarda tutashadi va bir-birini to‘ldiradi.

6. Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni, ya’ni oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi

7. Bugungi kunda ham nutqiy odob, muloqot xulqi masalalari tilshunoslikdagi asosiy masalalardan sanaladi. Kishilar o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi

nutqiy etiket ko‘rinishlari, nutqning sotsial xoslanishi lingvistik pragmatikaning o‘rganish sohasi sanaladi. Nutqiy aralashuv jarayonidagi suhbatning maqsad va yo‘nalishiga ko‘ra axborotning to‘liqligi, axborotning sifati, axborot yo‘nalishidan chetga chiqmaslik va so‘zlash manerasi tamoyillari asosiy o‘rin egallaydi.

8. So‘zlashuv uslubi — nutqning dialogik shaklidir. Bu uslub yozma nutqqa qaraganda ta’sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so‘z qo‘llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda so‘zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. So‘zlashuv uslubi uchun: so‘zlarning dialogik shaklda bo‘lishi, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan har xil takrorlar, intonatsion vositalar (gumon, ishonch, piching, qat’iylilik, hazil) ning ko‘proq bo‘lishi, so‘zlashuv uslubi uchun xos bo‘lgan emotsional–ekspressivlikning mavjudligi, so‘zlashuv uslubiga xos situatsiya (vaziyatlik), yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko‘proq bo‘lishi, haqorat, erkalov, kichrayturuv, oddiy muomalaga oid so‘zlarning ko‘proq bo‘lishidir. So‘zlashuv uslubida o‘zining barcha uslubistik bo‘yog‘i bilan ajralib turadigan lug‘aviy birliklar so‘zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ularda soddalik, ta’sirchanlik, erkinlik, sezilib turadi.

9. Miliy til bilan bog‘liq ravishda har bir xalqda miliy muomala odobi, nutqiy etiket shakllanadi. Ma’lumki, **etiket**—bu kishilarning o‘zaro munosabatiga tegishli umumiy tarzda qabul qilingan va rioya qilinishi talab etiladigan axloqiy qoidalardir. Shunga ko‘ra u muomala odobining rasmiylashgan shakli bo‘lib, u har bir xalqning urf-odati, xulq-atvori bilan bevosita bog‘liq odob qoidalari hisoblanadi. Nutqiy etiket so‘zlashuv nutqida ham alohida ahamiyatga ega.

10. Semalar so‘z sememasi tarkibida tutgan o‘rni va subyekt xabari nuqtayi nazaridan mantiqan informativ sema va pragmatik semalarga bo‘linadi. Informativ sema o‘z ichiga nomlovchi sema va relyativ semalarni oladi. Pragmatik sema tarkibida esa ham emotsional, ham ekspressiv semalar bor. Emotsional sema subyektning obyektga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etsa, ekspressiv sema semema ifodasini yo kuchaytirib, yo ozaytirib ko‘rsatadi.

11. So'zlashuv nutqida pragmatic ma'noning ifodalanishi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, so'zlaning konnotativ ma'noda qo'llanishi, so'zning emotsional bo'yog'i, diskursiv yuklamalar, frazeologizmlar bu omillar ichida ajralib turadi.

12. Nutqning ijtimoiy xoslanishi masalasi sotsiolingvistika va pragmatika sohalarining umuotsiopragmatika uchun ham noverbal vositalar alohida ahamiyatga ega. Chunki so'zlashuv nutqida muomalaning ta'sirliligini oshirish, noto'liq qismlarni to'ldirishda paralingvistik vositalarning o'ziga xos o'rni bor. Mazkur vositalarda ham ijtimoiy xoslanish mavjudligi va pragmatic ma'no ham ifodalanishi mumkinligi uchun sotsiolingvistika va pragmalingvistika uchun ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Т.: Маънавият, 2010.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш. М. Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза.

4. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

II. Ilmiy asarlar

1. Zarif Aliqulov, Saodat Boymirzaeva. Sotsiolingvistika. Ma`ruzalar matni. SamDU nashri. -Samarqand. 2009.
2. Ахманова О., Магидова И.М. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика. Вопросы языкознания. М., 1978, №3, с.44.
3. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умурқулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Тошкент: Фан, 1988.
4. Бегматов Э., Маматов А. Адабий меъёр назарияси. 1–3 қисм. Тошкент: Наврўз, 1997, 1999.
5. Боймирзаева С. Модаллик умумлисоний категория сифатида //Тил тараққиётининг деривацион қонуниятлари // Республика илмий назарий конференцияси материаллари. -Самарқанд: СамДЧТИ нашри,2009. – Б.192
6. Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 2005.
7. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд,1993.
8. Крысин Л.П. Речевое общение и социальные роли говорящих. В кн.: Социально-лингвистические исследования. М., 1976. с.49.
9. Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л., 1978, с.100-101.

10. Маткаримова А. “Ўқурмат” семантик майдонини ўрганишда прагматика ва семантиканинг фарқи. – ziyonet.uz.
11. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқ йўллари излаб...//Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент, 2012. –Н5.-Б.6-7.
12. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.-Тошкент, 2008.
13. Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳуққининг ижтимоий-лисоний хусусияти. ДДА. – Т.: 2000.
14. Монтегю Р. Прагматика. В кн: Семантика модальных и интенциональных логик. – М.: Прогресс, 1981. – С. 254-279.
15. Нурмонов А. Танланган асарлар.- Тошкент:“Академнашр”, - 2012.
16. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Андижон: 2006.
17. Негматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: 1993.
18. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. Т.: “Ўқитувчи”, 1978
19. Сафаров Ш. Прагмалингвистика.–Тошкент, 2008.
20. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХВИ. М., 1985, с.471.
21. Турсунпўлатов М. “Лексика узбекской разговорной речи” Тошкент. “Фан”. 1968, 84-бет
22. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
23. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: “Фан”, 2013. Б. 3.
24. Ўринбоев Б.”Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари ” Тошкент.1973,4-5-бетлар
25. Ўзбек тилининг изохли луғати.–М., 1981. 1–жилд.
26. Ўринбоев Б. Функционал услубият ва унинг моҳияти. – Тошкент: Фан, 1992.

27. Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари.
–Тошкент: Фан, 1975.

28. Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –
Тошкент, 1991.

29. Ғаниева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур
тадқиқи.–Тошкент, 2013

30. Ҳакимов М.Ўзбек прагмалингвистикаси асослари.–Тошкент, 2013.

31. Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент.2001. -№4. –Б.54-58.

32. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини.
Филол.фан.докт. дисс. автореферати. Т., 2001.

Internet adabiyotlar:

1. www.allpravo.ru
2. www.books.ru
3. www.ecoform.sk.uz
4. www.edu.uz
5. [www.iste`dod.uz](http://www.iste`dod.uz)
6. www.lawbook.ru
7. www.pedagog.uz
8. www.tdpu.uz
9. www.uznature.uz